

J.YA. ISAKOV

# BANK RISKLARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**J.Y. ISAKOV**

# **BANK RISKLARI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim  
vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan  
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT  
“IQTISOD-MOLIYA”  
2017**

UO‘K: 336.7(075.8)

KBK: 65.262.1

*Taqrizchilar:*     *i.f.d., prof. T.I. Bobakulov;*  
                          *i.f.d., prof. N.G. Karimov*

**J 78     Bank risklari:** O‘quv qo‘llanma / J.Y. Isakov; – T.:  
«Iqtisod-Moliya», 2017. – 100 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada tijorat banklari faoliyatidagi risklarni baholash va boshqarish usullari, prinsiplari, risklarning tijorat banklarining moliyaviy holatiga va likvidliligiga bo‘lgan ta’siri o‘z ifodasini topgan.

Shuningdek, o‘quv qo‘llanmada Bazel qo‘mitasining bank risklarini baholash va boshqarish bo‘yicha yangi talablari, xalqaro reyting agentliklari tomonidan tijorat banklari faoliyatidagi risklarni baholashda qo‘llaniladigan metodikalar o‘z aksini topgan.

O‘quv qo‘llanmada har bir mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar hamda nazorat uchun savollar berilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma bank tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar va talabalarga mo‘ljallangan.

UO‘K: 336.7(075.8)

KBK: 65.262.1

ISBN 978-9943-13-703-5

© Isakov J.Y., 2017  
© “Iqtisod-Moliya”, 2017

## KIRISH

Xalqaro bank amaliyotining zamonaviy rivojlanish bosqichida tijorat banklari faoliyatidagi risklarning kuchayib borishi kuzatilmoqda, buning natijasida bank risklarini baholash va boshqarish tizimlarining sifatini oshirish, ularga nisbatan belgilangan talablarni kuchaytirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Natijada, Markaziy banklar, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tijorat banklari faoliyatidagi risklarni baholash va boshqarish bo'yicha yangi yondashuvlar va metodikalarni ishlab chiqmoqdalar. Xususan, Bazel-II standartida kredit riski va operatsion riskni baholash bo'yicha bir qator yangi ishlanmalar o'z aksini topdi.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklari faoliyatidagi risklarning chuqurlashishi nafaqat banklarning o'ziga, balki ularning mijozlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy holatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda. Bunga yorqin misol qilib, 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini keltirish mumkin. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov e'tirof etganlaridek, "bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymatini halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi"<sup>1</sup>.

So'nggi yillarda tijorat banklarining faoliyatidagi operatsion va bozor risklarining kuchayishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, yetakchi xorijiy valutalar almashuv kurslarining beqarorligi natijasida tijorat banklari faoliyatidagi valuta riski muammosining chuqurlashishi yuz bermoqda.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009: 4 b.

Yuqorida qayd etilgan holatlar banklar faoliyatidagi risklarni ilmiy asosda tadqiq qilishni rivojlantirish, iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Bank risklari" fanini o'qitish sifatini yanada oshirish hamda bank risklarini boshqarishning dolzarb masalalarini o'zida aks ettirgan o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Ushbu o'quv qo'llanma magistratura ta'lim yo'nalishining "Bank risklari" innovatsion dasturi talablaridan kelib chiqqan holda tayyorlangan.

O'quv qo'llanmada tijorat banklari faoliyatidagi risklarning barcha umume'tirof etilgan turlari hamda ularni baholash va boshqarish usullari o'z aksini topgan.

Qo'llanma so'nggida bibliografik ro'yxat va bank risklariga oid bo'lgan atamalar mazmunini aks ettirgan glossariy keltirilgan.

O'quv qo'llanma magistratura talabalarini bank risklarini baholash va boshqarish xususidagi bilim va ko'nikmalarini boyitishga xizmat qiladi degan umiddaman.

## I bob. BANKLAR FAOLIYATIDAGI RISKLAR VA ULARNING TURKUMLANISHI

### 1.1. "Risk" va "bank riski" tushunchalarining mazmuni

"Risk" so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib, "suv ostidagi qoya" degan ma'noni bildiradi.

Rossiyalik iqtisodchi olim A.P. Alginning fikriga ko'ra, "risk-shunday umumlashgan hodisaki, u insonning sivilizatsiya jarayonidagi rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir"<sup>2</sup>.

S. N. Ojegovning rus tili lug'atida risk "muvaqqiyatga intilish, baxtli hodisadan umid" degan ma'noda talqin etilgan bo'lsa, Vebster lug'atida u "xavf, zarar yoki talofat ko'rish ehtimoli" deb ko'rsatilgan.

Boshqa olimlar tomonidan risk tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

– V.T. Sevruck: risk - bu holat, bir ishlab chiqaruvchining situativ holati<sup>3</sup>;

– A.Olshanniy: risk - bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir<sup>4</sup>;

– V.M. Usoskin: risk doimo noaniqlik bo'lib, pirovard natijada, oldindan ko'ra bilish yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq.

K.D. Valravenning fikriga ko'ra, G'arb mamlakatlari banklari ko'proq likvidlilik riski, kredit, portfel, sanoat, mamlakat, valuta, foiz riskiga duchor bo'ladilar.

P.S. Rouzning fikricha, bank risklari oltita asosiy turdagi riskni, ya'ni kredit riski, foyda ololmaslik riski, likvidlilik riski, bozor riski, foiz riski, to'lay olmaslik riskini o'z ichiga oladi.

Bazel Qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan ro'yxatda risklarning 9 ta turi mavjud:

- kredit riski;
- operatsion risk;
- huquqiy risk;

<sup>2</sup> Альгин А.П. Риск и его роль в общественной жизни. М. Мысль, 1989. С. 188.

<sup>3</sup> Севрук. Т.Банковские риски. М., 1995.

<sup>4</sup> Олшанний А.И. Банковские кредитование. М., РДЛ, 1997.

- sugʻurta riski;
- transfert riski;
- bozor riski;
- foiz riski;
- likvidlik riski;
- reputatsiya riski.

Ammo koʻpchilik iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklari faoliyatiga xos boʻlgan asosiy risk turlari sifatida quyidagilar eʼtirof etiladi:

- kredit riski;
- foiz riski;
- valuta riski;
- operatsion riski;
- likvidlilik riski;
- bozor riski.

## **1.2. Risklarning tijorat banklari faoliyatiga taʼsiri**

Risklar tijorat banklarining faoliyatiga bevosita va bilvosita taʼsir koʻrsatadi. Ayrim davrlarda maʼlum bir riskning tijorat bankining faoliyatiga taʼsiri favqulodda va kuchli boʻladi. Bunga misol qilib, 1996-yilda bankrot boʻlgan Angliyaning “Beringz bank”ini keltirish mumkin.

Mazkur bank oʻzining Singapurdagi filiali rahbarining xatti-harakatlari tufayli bankrot boʻldi. Bunda portfel riski bankning faoliyatiga favqulodda va kuchli taʼsir koʻrsatdi. Yaʼni, filial boshligʻi bank balansining passiv qismida turgan barcha boʻsh pul mablagʻlarini, qimmatli qogʻozlar portfelini diversifikatsiyalashni qoʻpol ravishda buzgan holda, Yaponiya korporatsiyalarining obligatsiyalari va fyucherslariga investitsiya qildi. Oradan biroz vaqt oʻtgach, Yaponiyaning Kobe shahrida yuz bergan dahshatli zilzila natijasida Yaponiya korporatsiyalarining obligatsiyalari va fyucherslarining bozor bahosi keskin tushib ketdi. Buning oqibatida “Beringz” bank bankrot boʻldi.

Tijorat banklarida likvidlilik riskining chuqurlashishi bankning reputatsiyasiga va aktivlarining daromadlilikiga nisbatan kuchli salbiy taʼsirni yuzaga keltiradi. Likvidlilik riskining bankning reputatsiyasiga nisbatan salbiy taʼsiri shunda namoyon boʻladiki, bankda balans-

lashmagan likvidlilikni yuzaga kelishi natijasida to'lovlarning kechikishi yuz beradi. Bu esa, bankning mijozlar oldidagi reputatsiyasiga putur yetkazadi.

Likvidlilik riskining bank aktivlarining daromadlilikiga nisbatan salbiy ta'siri shundaki, tijorat bankining "Hocpo" vakillik hisobraqamlarida pul mablag'larining to'planishi bank aktivlarining daromadlilik darajasini pasayishiga olib keladi. Chunki, tijorat banklarining "Hocpo" vakillik hisobraqamlarining qoldiqlariga, odatda, foiz to'lanmaydi.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklarining faoliyatiga kredit riskining ta'siri boshqa risklarning ta'siriga qaraganda yuqoridir. Bu esa, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- kreditlar tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi;


- kreditlarning qaytmasligi bankning likvidlilik darajasini pasaytiradi, chunki kreditlar tijorat bankining "Hocpo" vakillik hisobraqamlarini kreditlash yo'li bilan beriladi;

- kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytmasligi natijasida foizli daromadlar miqdori kamayadi. Buning natijasida sof foizli daromad miqdori ham kamayadi. Sof foizli daromad esa, tijorat bankining moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri mijozlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'lganligi sababli valuta riski ularning faoliyatiga ma'lum davriy oraliqlarda kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tijorat banklarida "risk-menejment" tizimining rivojlanishi bank risklari darajasini pasaytirish imkonini beradi. Natijada, risklar ta'sirida bankning moliyaviy barqarorligi yomonlashishining oldi olinadi.

Shunisi xarakterliki, tijorat banklari faoliyatidagi risklarning darajasiga ta'sir qiluvchi tashqi omillar ta'sirida ayrim risklarning darajalari kutilmaganda oshib ketishi mumkin. Masalan, mamlakatda iqtisodiy konyunkturaning yomonlashib ketishi natijasida milliy valutaning qadri keskin pasayishi mumkin. Bunday holatda valuta riskining tijorat banklari faoliyatiga nisbatan ta'siri keskin oshadi. Yoki Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalarining oshirilishi natijasida tijorat banklari faoliyatidagi likvidlilik riskining darajasi keskin oshishi mumkin.



1.1-rasm. Risk va daromad o'rtasidagi o'zaro munosabat<sup>5</sup>

Bu yerda:

$E_r$  – rejalashtirilayotgan foyda miqdori, %;

$E_{r0}$  – risk bo'lmashlik holatida investor rejalashtirayotgan foyda miqdori.

Agar risk yetarli darajada katta bo'lsa, taxmin qilinayotgan daromad katta bo'lishi kerak. 1-rasmda ko'rsatilgan egri chiziq daromadlar miqdorini o'sishi qo'shimcha riskni qoplashi kerak, degan farazni tasdiqlaydi. Ushbu egri chiziq risk darajasi nolga teng bo'lganda ham investor ma'lum miqdorda foyda oladi.

Tijorat banki riskli operatsiyalarining qo'shimcha daromad olishga ta'siri quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_d = BF \frac{N}{100}.$$

Bu yerda:

$Q_d$  – riskli operatsiyalarni amalga oshirish hisobiga olingan qo'shimcha daromad;

$BF$  – bankning balans foydasi;

$N$  – bank bo'yicha riskni yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajasi.

O'z navbatida, bank bo'yicha riskni yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajasi ( $N$ ) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

<sup>5</sup> Батракова Л.Г. Анализ процентной политики коммерческого банка. М.: Логос, 2002.

$$N = \frac{P_1 + P + \dots + P_i + P_n}{K_p} EK_k.$$

Bu yerda:

$P_i$  – risk turlari;

$i=(1,n)$ ;

$K_k$  – berilgan operatsiya bo'yicha kreditlar summasi;

$K_r$  – mijozlarning tarkibi va kreditga layoqatligini korrelatsiya koeffitsiyenti;

$E$  – riskni tashqi omillarining harakatini inobatga oladigan korrektor koeffitsiyent.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklari faoliyatiga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etilayotganligi banklar tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning sifati va sonini oshirish bilan birga, risklarning oshishiga ham sabab bo'lmoqda. Masalan, innovatsion bank texnologiyalaridan biri bo'lgan elektron banking bank risklarining yangi manbalarini yuzaga kelishiga olib keladi. Bu esa, quyidagi omillar bilan izohlanadi:

1. Bankning noqonuniy operatsiyalar bilan shug'ullanishga moyilligi bo'lgan yangi mijozlarining paydo bo'lishi.

2. Uchinchi tomonning, shu jumladan provayderlarni masofaviy bank xizmatlari tizimini shakllantirish va ishlashini ta'minlash maqsadida jalb qilinishi.

3. Banklarning avtomatlashtirilgan tizimlariga noqonuniy kirish va xakerlik hujumlari qilishga urinishlarning paydo bo'lishi.

Shuningdek, innovatsion bank texnologiyasi bo'lgan "Internet-banking"da ham atayin kompyuter virusini tarqatish yo'li bilan dasturiy ta'minotga zarar yetkazish maqsadidagi urinishlar kuzatiladi.

Elektron formatda ko'rsatiladigan bank xizmatlari jarayonida yuzaga keladigan risklarning chuqurlashishini oldini olish maqsadida Bazel qo'mitasi mazkur xizmat turlari bilan bog'liq bo'lgan risklarni boshqarish prinsiplarini ishlab chiqdi. Jumladan:

– tijorat bankingning Direktorlar kengashi va Boshqaruvi uchun prinsiplar;

– xavfsizlikni ta'minlash vositalarini tanlash va maqbul tarzda amal qilishi uchun prinsiplar;

– risklarni boshqarishning ahamiyatligini oshirish uchun prinsiplar.

Mazkur prinsiplarga rioya qilish elektron bank xizmatlari bilan bog'liq bo'lgan risklarning chuqurlashishini oldini olish imkonini beradi. Xususan, "Internet-banking" operatsiyalarini amalga oshirish va xavfsizlik yuzasidan nazoratning ishonchliligi ta'minlash sharoitida risklarni boshqarish siyosati uchun tijorat bankining Kuzatuv kengashi javob beradi. Tijorat banki Boshqaruvi esa, elektron bank xizmatlari ko'rsatish jarayonida autentifikatsiya usullarini joriy qilish, ma'lumotlardan ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun cheklovlar qo'llash yuzasidan javobgar hisoblanadi.

### **1.3. Bank risklarining turkumlanishi**

Tijorat banklari faoliyatidagi risklar turli belgilariga ko'ra turkumlanadi.

Bank risklari yuzaga kelish sohasiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- tashqi risklar;
- ichki risklar.

Tashqi risklar – bu bevosita bank va uning mijozlari faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan risklardir.

Tashqi risklar tarkibida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy – iqlim risklari muhim o'rin tutadi.

Siyosiy risk mamlakatdagi siyosiy vaziyat va davlatning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u urushlar, inqilob, davlat to'ntarishi, xususiy mulklarni milliyalashtirish natijasida yuzaga keladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tashqi risklar tijorat banklari faoliyatiga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy risklar mamlakatdagi iqtisodiy konyunkturaning o'zgarishi natijasida yuzaga keladi.

Mulkiy risklar – bu o'g'irlik, qo'poruvchilik, terrorchilik harakatlari, ekologik tanglik va boshqa shu kabi sabablarga ko'ra mulkni yo'qotish xavfidir.

Tarmoq risklari iqtisodiyot tarmoqlarida yuz beradigan o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi.

Moliyaviy risklar bevosita pulning xarid qobiliyatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, pulning qadrsizlanishi va deflatsiya risklarini o'z ichiga oladi.

Tabiiy iqlim risklari tabiiy ofat va halokatlar ya'ni zilzila, suv toshqinlari, yong'in, yuqumli kasalliklar epidemiyasi, ekologik muvozanatning buzilishi natijasida yuzaga keladi.

Tashqi risklar qamrab olish ko'lamiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- xalqaro risklar;
- mamlakat riski;
- hudud riski;
- mintaqa risklari.

O'z navbatida, mamlakat riskining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- konvertirlangan risklar;
- transfert risklari;
- maratoriya to'lovlari bo'yicha risklar.

Mamlakat riskini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan keng foydalaniladi:

- yalpi ichki mahsulot yoki yalpi milliy mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'ati;

- siyosiy risk darajasi;
- tashqi savdo balansi; eksport hajmi, tashqi qarzarlar;
- moliyaviy vositachilik darajasi;
- fors-major holatlarining yuzaga kelishi;
- mamlakatning suveren kredit reytingi darajasi.

Ichki risklar – bu tijorat banki va uning mijozlari, kontragentlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan risklardir.

Ichki bank risklari darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardir:

- bank boshqaruvi sifatining o'zgarishi;
- bankning strategiyasi va taktikasini tanlashdagi xatoliklar;
- bank mijozlarining tovarlar va xizmatlar bozoridagi pozitsiyasining o'zgarishi;
- vakil banklar holatining yomonlashishi.
- bank rahbariyatining tadbirkorlik faolligi.

Ichki risklar, o'z navbatida, banklarning turlari, mijozlarining tarbiyasi va bank operatsiyalarining xususiyati bo'yicha guruhlariga ajraladi.

Banklarning turlariga ko'ra ichki risklar:

- tarmoq banklari faoliyatidagi risklar;
- ixtisoslashgan banklar faoliyatidagi risklar;

- universal tijorat banklaridagi risklar.

Tijorat banki mijozlarining tarkibi bo'yicha ichki risklar:

- balans operatsiyalari riski;

- balansdan tashqari operatsiyalar riski;

- moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan risklar.

O'z navbatida, balans operatsiyalari risklarining quyidagi turlari mavjud:

- bankning aktiv operatsiyalar riski;

- bankning passiv operatsiyalar riski;

- aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq risklar.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Risk, xavf, zarar, talafot, situatsion holat, noaniqlik, mumkin bo'lmagan voqealar, Bazel qo'mitasi, tijorat banki, diversifikatsiya, korporatsiya, obligatsiya, fyuchers, nostro, vostro.

### **Nazorat uchun savollar**

1. "Risk" so'zi qanday ma'noni anglatadi va u qachon banklar faoliyatiga kirib kelgan?

2. Banklar faoliyatidagi risklar qaysi mezonlar asosida turkumlanadi?

3. Risklarning tijorat banklari faoliyatiga ta'siri qay shakllarda namoyon bo'ladi?

4. Bazel qo'mitasi haqida nimalarni bilasiz?

5. Bazel qo'mitasi tomonidan risklarni baholash va boshqarish bo'yicha qanday me'yoriy-uslubiy ishlanmalar mavjud.

## II bob. BANK RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMI

### 2.1. Bank risklarini boshqarishning nazariy asoslari

Iqtisodiy adabiyotlarda bank risklarini boshqarishga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Bularning asosiy qismini AQSh va G'arbiy Yevropa davlatlarining iqtisodchi olimlari tashkil etadi.

AQShlik taniqli iqtisodchi olim J.Stiglitsning fikricha, kredit riskining yuzaga kelishining asosiy sababi bo'lib, tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasining pasayishi hisoblanadi<sup>6</sup>.

Prof. V.Usoskinning xulosasiga ko'ra, tijorat banki tomonidan mijozni kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash orqali kredit riski darajasini sezilarli darajada pasaytirish mumkin<sup>7</sup>.

D.Polfreman, F.Fordlar muallifligidagi "Bank ishi asoslari" kitobida mijozning kredit yig'ma jildini o'rganishga e'tiborni kuchaytirish orqali banklar faoliyatidagi kredit riski darajasini pasaytirish taklif qilingan<sup>8</sup>.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasi 5 foizdan oshmasligi lozim<sup>9</sup>.

N.Likovanning xulosasiga ko'ra, muammoli kreditlarning yuzaga kelishini oldindan aniqlash kredit riskini boshqarishning nisbatan ishonchli va samarali usuli hisoblanadi<sup>10</sup>.

L. Drobozinaning xulosasiga ko'ra, kreditning o'z vaqtida qaytarilmasligini quyidagi belgilar orqali bilish mumkin<sup>11</sup>:

– balanslarning belgilangan muddatlarda topshirilmasligi (korxonada hisob - kitob ishlarining izdan chiqqanligi haqida signal);

<sup>6</sup> Доклад Стиглица / Пер. с англ. М.: Международные отношения, 2010. С. 69-70.

<sup>7</sup> Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. М. ВАЗаР-ФЕРРО, 1994. С. 189.

<sup>8</sup> Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дела / Пер. с англ. М.: ИФРА-М, 1996. С.489-490.

<sup>9</sup> www.world.com.

<sup>10</sup> Ликова Н.М. Раннее обнаружение проблемных кредитов // Банковское дело. М., 2013. №8. С. 51.

<sup>11</sup> Дробозина Л.А. Финансы, денежное обращение, кредит. М.: ЮНИТИ, 2000. 329 с.

- debitorlik qarzini tez sur'atlarda o'sishi (tarkibini tahlil qilish, paydo bo'lish vaqti va uning o'sishi sabablarini aniqlash);
- qisqa muddatli kreditorlik qarzining nomutanosib o'sishi;
- likvidlilik koeffitsiyentining pasayishi;
- aktivlar summasida asosiy kapital ulushining o'sishi;
- sotuv hajmining pasayishi (bozor qanday o'rganilgan va hokazo);
- muddati o'tib ketgan qarzlarning o'sishi;
- operatsion faoliyatdan keladigan zararlarning paydo bo'lishi.

Shuningdek, iqtisodchi olimlar tomonidan risklarning boshqa turlarini boshqarish bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va tegishli xulosalar chiqarilgan.

I.Noskovaning xulosasiga ko'ra, valuta riskini boshqarishda ssudalarning tasnifiy belgilari va muddati o'tgan foizlarning mavjudligi hech qanday amaliy ahamiyatga ega emas. Chunki, kreditlarning tasnifiy belgilari kredit riskining darajasini ko'rsatadi, valuta riskining esa darajasini ko'rsata olmaydi<sup>12</sup>.

Haqiqatdan ham, hozirgi davrda tijorat banklarining ochiq valuta pozitsiyalarini boshqarishda quyidagi oltita usuldan keng foydalanilmoqda. Bunda banklarning qisqa valuta pozitsiyasini boshqarishda quyidagi 3 usuldan foydalanilmoqda:

- xorijiy valutilarni sotib olish;
- xorijiy valutilarda depozitlar qabul qilish;
- xorijiy valutilarda emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni sotish.

Tijorat banklarida uzun valuta pozitsiyalarini boshqarishda ham uch usuldan foydalanilmoqda:

- xorijiy valutilarni sotish.
- xorijiy valutilarda kreditlar berish;
- xorijiy valutilarda emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni sotib olish.

Sh.Abdullayeva tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarishni takomillashtirish yo'li bilan kredit portfelining sifatini oshirish mumkin, deb hisoblaydi<sup>13</sup>.

O. Abdusalomova respublikamiz tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi muammolarning mavjudligini aniqlagan:

<sup>12</sup> Носкова И.Я. Валютные и финансовые операции. М.: ЮНИТИ, 1998. С.45.

<sup>13</sup> Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. T.: Moliya, 2002. 304 b.

– banklarda undirish muddati kelgan faktoring qoldiqlari o‘z navbatida muddati o‘tgan faktoring operatsiyalari hisobraqamlariga aks ettirilmagan va o‘z vaqtida tasniflanmagan. Faktoring amaliyotlarini amalga oshirishda mijozdan oldi-sotdi shartnomalari, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha to‘lov talabnomalari talab qilib olinmaganligi;

– kredit shartnomalarida kredit qancha muddatga va qaysi maqsadga ko‘ra berilganligi ko‘rsatilmagan<sup>14</sup>.

## **2.2. Bank risklarini markazlashgan tarzda boshqarish tizimi**

Tijorat banklari faoliyatidagi risklarni markazlashgan tarzda boshqarish banklar faoliyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda asosan iqtisodiy me‘yorlar tizimidan va banklar faoliyatini inspeksion tekshirishdan keng foydalaniladi.

CAMELS reyting tizimida aktivlar sifatini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkich aktivlar umumiy riskining absolut miqdori ko‘rsatkichi (UR) orqali aniqlanadi.

$$UR = \text{Standart aktivlar} - 0,02 + \text{Substandart aktivlar} - 0,2 + \text{Shubhali aktivlar} - 0,5 + \text{Umidsiz aktivlar} - 1,0 + \text{Sud jarayonidagi aktivlar} - 1,5$$

Demak, aktivlarning sifatini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkich quyidagicha aniqlanadi:  $UR / K - 100 \%$ .

Aktivlar sifati bo‘yicha kuchli reyting baliga ega bo‘lgan banklarda aktivlarning boshqarilishi jarayoni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, turli likvidlik muammolari yuzaga kelmaydi.

Risklarga ta’sirchanlik CAMEL(S) dagi “S” 1995-yilda FRT va Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan. U 1997-yilning 1-yanvarida reyting tizimi tarkibiga qo‘shilgan bo‘lib, birinchi navbatda, tijorat banki kapitali va foydasining bozor riskiga ta’sirchanligini aniqlash hamda baholash maqsadida joriy etilgan.

Bozor riskining tobora kuchayib borayotganligi, ayniqsa, global moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar davridagi bozor konyunkturasining keskin tebranishlari xalqaro ekspertlarni jiddiy tashvishga soldi va

<sup>14</sup> Abdusalomova O.F. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish masalalari: i.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. T., 2002. B. 17.

buning natijasida bozor riskini baholash va boshqarish bo'yicha yangi talablar yuzaga keldi.

## 2.1-jadval

### CAMELS reyting tizimida tijorat banklari aktivlarining risk darajasi<sup>15</sup>

| Banklarning balans aktivlari                                                                                             | Risk darajasi, % |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------|
| Kassadagi naqd pullar                                                                                                    | 0                |
| Yo'ldagi pullar                                                                                                          | 20               |
| Hukumatga yoki Markaziy bankka bo'lgan talablar                                                                          | 20               |
| Pul mablag'lari bilan yoki hukumatning qimmatli qog'ozlari yoki kafolatlari bilan ta'minlangan talablar                  | 20               |
| Mahalliy jamoat tashkilotlariga bo'lgan talablar va ushbu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan ssudalar                  | 20               |
| XTT bankiga bo'lgan talablar va ushbu banklar kafolatlagan yoki ularning qimmatli qog'ozlari bilan ta'minlangan talablar | 20               |
| Xususiy sektorga bo'lgan talablar                                                                                        | 100              |
| Ipoteka kreditlari                                                                                                       | 50               |
| Ijtimoiy tijorat kompaniyalariga bo'lgan talablar                                                                        | 100              |
| Bino, inshootlar va boshqa asosiy vositalar                                                                              | 100              |
| Ko'chmas mulk va boshqa investitsiyalar                                                                                  | 100              |
| Boshqa banklarning qarz majburiyatlari                                                                                   | 100              |
| Boshqa aktivlar                                                                                                          | 100              |

Respublikamizda bank risklarini boshqarishning markazlashgan tizimi Markaziy bank tomonidan tashkil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ochiq valuta pozitsiyalariga nisbatan 2005-yilning avgust oyidan boshlab quyidagi cheklovlar o'rnatildi:

1. Tijorat bankining bitta valutadagi ochiq valuta pozitsiyasining miqdori uning regulativ kapitalining 10 foizidan oshib ketmasligi lozim.

2. Tijorat bankining barcha valutilardagi yakuniy netto valuta pozitsiyasining miqdori uning regulativ kapitalining yigirma foizidan oshib ketmasligi lozim<sup>16</sup>.

<sup>15</sup>Boboqulov T.I. va boshqalar. Moliya-bank tizimini tahlil qilish va baholashda qo'llaniladigan xalqaro me'yorlar, mezonlar va standartlar. T.: Moliya, 2011.

<sup>16</sup>O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2005-yil 28-maydagi 610-sonli "Ochiq valuta pozitsiyalarini yuritish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. T.: O'zR MB, 2005.

Tijorat banklarining ochiq valuta pozitsiyalariga nisbatan belgilangan mazkur cheklovlarning me'yoriy darajasini turli davlatlarda bir-biridan keskin farqlanmasligining sababi shundaki, tijorat banklarining ochiq valuta pozitsiyalarini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan metodikaning mualliflari bo'lib xalqaro Bazel qo'mitasining ekspertlari hisoblanadi. Respublikamiz bank amaliyotida qo'llanilayotgan cheklovlarning me'yoriy darajasi bilan G'arbiy Yevropa mamlakatlari qo'llanilayotgan cheklovlarning me'yoriy darajalarida yaqinlik mavjud.

Iqtisodiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan va ularning bajarilishi ustidan nazoratni ham Markaziy bank amalga oshiradi. Iqtisodiy me'yorlar talabini bajarmagan tijorat banklari jarimaga tortiladi. Jarima miqdori esa, tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdoriga qo'yiladigan talab summasiga nisbatan belgilanadi.

Hozirgi kunda aksiyadorlik-tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdoriga qo'yilgan talab 10,0 mln yevro ekvivalentidagi summani, xususiy tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdoriga qo'yilgan talab esa, 5,0 mln yevro ekvivalentidagi summani tashkil etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalariga nisbatan ham iqtisodiy me'yorlar o'rnatilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tijorat banklari tomonidan bir emitentning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning eng yuqori miqdori bo'yicha belgilangan iqtisodiy me'yor.

Ushbu me'yor tijorat banklarining birinchi darajali kapitaliga nisbatan o'rnatilgan bo'lib, uning darajasi o'n besh foizni tashkil etadi.

Aksiyadorlik-tijorat Agrobank, Ipotekabank va Qishloq qurilish bankda bir emitentning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning eng yuqori miqdori bo'yicha belgilangan iqtisodiy me'yorning bajarilishi tahlili ko'rsatdiki, Mazkur banklarda bir emitentning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning eng yuqori miqdori bo'yicha belgilangan iqtisodiy me'yorning bajarilishi bo'yicha muammolar mavjud emas. Ushbu ko'rsatkichning haqiqatdagi darajasini Agrobank va Qishloq qurilish bankda 0,0 ga teng ega.

ekanligi ushbu banklarda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan investitsion operatsiyalarni rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

2. Tijorat banklarining oldi-sotdi uchun mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning eng yuqori miqdori bo'yicha belgilangan iqtisodiy me'yor.

Mazkur me'yorning darajasi banklarning birinchi darajali kapitaliga nisbatan yigirma besh foiz qilib belgilangan.

Aksiyadorlik-tijorat Agrobank, Ipotekabank va Qishloq qurilish bankda oldi-sotdi uchun mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning eng yuqori miqdori bo'yicha belgilangan iqtisodiy me'yorning bajarilishi tahlili ko'rsatdiki, ushbu banklarda mazkur iqtisodiy me'yorni bajarishda muammolar mavjud emas.

Har uchala bankda ushbu ko'rsatkichning haqiqatdagi darajasini 0,0 ga teng ekanligi ushbu tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan investitsion operatsiyalarni rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarining rivojlanishi bevosita ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanishiga bog'liq. Respublikamizda esa, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi talab darajasida emas.

Investitsion operatsiyalarning rivojlanmaganligi, o'z navbatida, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Tijorat banklarining barcha emitentlarning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalariga nisbatan belgilangan iqtisodiy me'yor.

Aksiyadorlik-tijorat Agrobank, Ipotekabank va Qishloq qurilish bankda barcha emitentlarning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning eng yuqori miqdori bo'yicha belgilangan iqtisodiy me'yorning bajarilishi tahlilidan ma'lum bo'ldiki, ushbu banklarda mazkur iqtisodiy me'yorning bajarilishi bo'yicha muammolar mavjud emas.

Respublikamizda Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyati inspeksion tekshiruvdan o'tkazilishida "SAMELS" reyting tizimiga asoslaniladi, ammo tekshiruv natijalari asosida bank holatiga yakuniy reyting baholari berilmaydi. Bunga asosiy sabablardan biri reyting tizimining mamlakatimiz bank tizimi xususiyatlariga moslashtirilmaganligidadir. Ya'ni, milliy bank tizimimizdagi joriy

holatda reyting tizimidagi bir-biriga uzviy bog'liq hisoblangan komponentlarning o'zaro teng ulushlari vazirlashtirilishi lozim. Bundan tashqari, tijorat banklarini bir-biri bilan taqqoslashda o'zaro guruhlariga bo'lib olinishi va guruh subyektlari o'rtasida ichki taqqoslash o'tkazilishi talab etiladi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi davrda, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatidagi risklarni nazorat qilish tizimini Bazel standartlari talablari asosida takomillashtirish borasida qator muammolarning mavjudligi ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, tijorat banklari kapitalining tarkibi Bazel standartlari talablariga to'liq javob bermaydi. Hamon devalvatsiya zaxirasi tijorat banklarining birinchi darajali kapitali tarkibida hisobga olinib kelinmoqda. Bazel standartida esa, devalvatsiya zaxirasini tijorat banklarining umumiy kapitali tarkibida hisobga olishning maqsadga muvofiq emasligi ko'rsatilgan. Buning natijasida banklar kapitalining barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sir yuzaga kelmoqda. Chunki, ushbu mamlakatlarda milliy valutaning xorijiy valutalarga nisbatan qadrsizlanish darajasi nisbatan yuqoridir. Bunday sharoitda, odatda, tijorat banklari kapitalining yuqori o'sish sur'ati devalvatsiya zaxirasi summasining o'sishi hisobiga ta'minlanadi.

Bundan tashqari, kredit riskini baholash bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan taklif qilingan yangi yondashuvlar respublikamiz bank amaliyotiga joriy etilmagan.

Shuningdek, Bazel standartining bank nazoratiga oid bo'lgan prinsiplari respublikamiz bank nazorati tizimiga to'liq joriy etilmagan. Jumladan, bank nazoratining 12- prinsipiga ko'ra, bank nazorati organlarining ishonchi komil bo'lishi lozimki, banklar bozor riskini aniq o'lchaydigan, ular ustidan monitoring olib boradigan va yetarli darajada nazoratni amalga oshiradigan tizimlarga egadirlar; nazorat organlari bozor riskiga qarshi maxsus limitlar yoki kapitaldan ajratmalar qilishni belgilash vakolatiga ega bo'lishlari lozim, agar bunga asos bo'lsa<sup>17</sup>. Ammo Respublikamiz tijorat banklarida bozor riskini o'lchash va monitoring qilish tizimi shakllantirilmagan.

Bundan tashqari, Bazel standartining tijorat banklari faoliyatiga oid ma'lumotlarning oshkoraligini ta'minlashga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish yo'li bilan bozor intizomini rag'batlantirish xususidagi

<sup>17</sup> Moliya-bank tizimini tahlil qilish va baholashda qo'llaniladigan xalqaro me'yorlar, mezonlar va standartlar. T.: Moliya. 2011. 128 b.

talabi ham respublikamizning bank nazorati tizimiga to'liq joriy qabul qilinmagan. Bunday deyishimizning sababi shundaki, mazkur talabga ko'ra, e'lon qilinayotgan ma'lumotlar bozor ishtirokchilariga bank faoliyatining riskka ta'sirchanlik darajasi, kapitalining yetarliligi va risklarning darajasi xususida xulosalar chiqarish imkonini berishi lozim. Ammo Respublikamiz banklari tomonidan e'lon qilinayotgan ma'lumotlar faqat kapitalning yetarliligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi. E'lon qilinayotgan ma'lumotlar tijorat banki faoliyatining riskka ta'sirchanlik darajasi va ular faoliyatidagi risklarning darajasini baholash imkonini bermaydi.

Bazel-III standarti Markaziy banklarga tijorat banklarining dividend va bonus siyosatlariga aralashish huquqini berdi. Ya'ni, Markaziy bank kapitalning yetarliligiga nisbatan belgilangan talablarni bajarmagan tijorat banklarining dividendlari va bonuslari miqdorini kamaytirishi mumkin. Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga ham ana shunday vakolatni berish lozim. Buning sababi shundaki, Markaziy bank tomonidan dividendlar miqdorining kamaytirilishi bank Kengashining ma'suliyatini yanada oshishiga olib keladi. Chunki, aksiyadorlarning moddiy manfaatdorligini belgilovchi asosiy omil bo'lib, ularga to'lanayotgan dividendlarning darajasi hisoblanadi.

Ayni vaqtda, "CAMELS" reyting tizimining S elementini respublikamiz amaliyotida qo'llashda muammolar mavjud. Ana shunday muammolardan biri bozor riskining tijorat banklari aktivlari va foydasiga ta'sirini baholash metodikasi mavjud emas. Bundan tashqari, respublikamizning qator yirik tijorat banklarida mazkur reyting tizimining talablarini bajara olmaslik holatlari mavjud.

### **2.3. Bank risklarini markazlashmagan tarzda boshqarish tizimi**

Risklarni markazlashmagan tarzda boshqarishda har bir risk turiga nisbatan individual yondashuv qo'llaniladi. Masalan, kredit riskini boshqarishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- bankning kredit portfelini diversifikatsiya qilish;
- mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashni takomillashtirish;
- kreditlarning garov ta'minotini yaxshilash;

– tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Banklar faoliyatidagi moliyaviy risklarga inflatsiya riski, valuta riski va fond riski kiradi.

Inflatsiya riski – bu inflatsiya darajasining oshishi natijasida tijorat banki aktivlari va daromadlari qiymatining pasayish xavfidir.

Valuta riski deganda, tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida ayirboshlash kurslarini o‘zgarishidan yoki boshqa turli valuta operatsiyalarini amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar (yoki daromad olish) tushuniladi. Valuta risklarining yuzaga kelishining asosiy sababi – valuta kurslarini o‘zgarishi hisoblanadi. Valuta riski valuta munosabatlarida ishtirok etuvchi barcha subyektlarga ta’sir ko‘rsatadi.

Valuta riski yuzaga kelishining asosiy sababi valutalar almashuv kurslarining tebranishidir.

Fond riski – bu fond birjalaridagi konyunkturaning bank uchun yomonlashishi natijasida tijorat banki tomonidan sotib olingan va bank tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarning bozor baholarini pasayish xavfidir.

Fond riskining yuzaga kelishi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- ssuda kapitallari bozorida foiz stavkalarining oshishi natijasida qimmatli qog‘ozlarning bozor baholarining pasayishidir;
- moliyaviy inqirozlarning yuzaga kelishi;
- qimmatli qog‘oz emitentlarining moliyaviy ahvolini yomonlashishi;
- milliy valutaning keskin qadrsizlanishi.

Bazel qo‘mitasiinng 2004-yilning oktabr oyida so‘nggi varianti e‘lon qilingan Bazel-II standartida operatsion riskni boshqarish bo‘yicha yangi talablari o‘z aksini topgan. Xususan, Bazel-II da aktivlarni riskka tortilgan summasi (RWA) tarkibi o‘zgaradi va ushbu tarkib quyidagicha aniqlanadi:

$$RWA=CRWA+OR+MP.$$

Bu yerda:

CRWA-aktivlarni kredit riskiga tortilgan summasi;

OR- operatsion risk;

MR-bozor riski.

Bazel-II standartida operatsion risk bo‘yicha kapitalning yetarligini hisoblash uchun uch usuldan foydalanish tavsiya etilgan. Birinchi usul bazaviy indikator usuli, ikkinchi usul – standartlash-

tirilgan usul, uchinchi usul esa, kengaytirilgan usul hisoblanadi. Mazkur usullar bo'yicha hisoblangan kapitalning yetarlilik koeffitsiyentlari bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda Bazel qo'mitasi tomonidan tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini, shu jumladan, ipoteka kreditlari bilan bog'liq risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish bo'yicha qator yangiliklar joriy qilindi. Xususan, Bazel-II standartida tijorat banki mijozlarining kredit riskini ularning individual kredit reytingi asosida aniqlash tavsiya etilgan. Mijozlarning individual kredit reytingi esa, o'z navbatida, ularning kredit tarixiga qarab aniqlanishi lozim. Shunisi xarakterliki, Bazel-II standartida mijozlarning individual kredit reytingini banklarning o'zi aniqlaydi.

Ichki reytinglar asosidagi yondashuvda kredit riski darajasi bankning ichki reytinglariga asoslangan ballarga bog'liq ravishda belgilanadi. Banklarning ichki reytingi esa, mijozlarning kredit tarixiga asosan belgilanadi. Mazkur yondashuvda uch muhim jihat mavjud:

- bank o'zining va o'z kontragentlarining krizis yoki bankrot imkoniyatlariga mustaqil baho berishni amalga oshirishga qodir bo'lishi lozim;

- bank risklarga integral baho bera olishi zarur;

- ichki baholash bank qanday ma'lumotlardan foydalanishiga bog'liq bo'ladi, ya'ni bank o'z risklarini ishonchli ma'lumotlarga muvofiq o'lchashga qodir bo'lishi shart.

Kapitalga qo'yiladigan talablarni hisoblashda IRB yondashuvlarida faqat kutilmagan zararlar (Unexpected Loss – UL)ga berilgan baholar hisobga olinadi. Kutilayotgan zararlar (Expected Loss – EL) kreditlar bo'yicha ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiralarga kiritiladi.

Hisoblangan zaxiralar kutilayotgan zarardan kamroq bo'lsa, zaxiralarning bu taqchilligi tartibga soluvchi kapitaldan teng qismlarga bo'lib hamda birinchi va ikkinchi daraja kapitallaridan chegirib qolinadi. Zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiralarning ortiqcha qismi ikkinchi daraja kapitalga, lekin yuqori limit bilan qo'shib qo'yiladi.

Bazel-II standartining ushbu talabini respublikamiz bank amaliyotida, shu jumladan, ipotekali kreditlash amaliyotida qo'llashning hozircha iloji yo'q. Chunki, mamlakat bank tizimida faoliyat

yuritayotgan tijorat banklarida mijozlarning, shu jumladan, ipoteka kreditlari oluvchi mijozlarning kredit tarixi mavjud emas.

Bazel-II standartida kredit riski darajasini kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasini hisobga olgan holda belgilash tavsiyasi mavjud. Ushbu tavsiyaga ko'ra, kredit riski darajasi quyidagicha aniqlanadi:

– agar kreditning muddati o'tganiga 90 kundan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa va kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmasi kredit bo'yicha jami qarzdorlikning 20 foizidan ortiq bo'lsa, u holda, ushbu toifadagi kreditlarning risk darajasi 100 foizga teng;

– agar kreditning muddati o'tganiga 90 kundan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa va kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmasi kredit bo'yicha jami qarzdorlikning 20 foizidan kam bo'lsa, u holda, ushbu toifadagi kreditlarning risk darajasi 150 foizga teng.

Ta'kidlash joizki, Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan yangi standartlarni amaliyotga joriy etish murakkab va qiyin jarayon hisoblanadi. Shu sababli, qator mamlakatlarda mazkur standartlarni joriy etish muddatlari kechiktirilmoqda. Xususan, AQShda ushbu yangi standartlarning talablariga hozirgi kunda yigirmataga yaqin bank rioya qiladi. Buning sababi shundaki, Bitim kichik va o'rta banklarga uni joriy etishga qilinadigan ko'p miqdordagi xarajatlar bilan taqqoslaganda juda kam ustunlik beradi. Bundan tashqari, AQSh nazorat organlari rezervga ajratiladigan kapital hajmlarining kamayishi mamlakat bank tizimining risklari hajmini oshirishi mumkinligidan xavotirga tushmoqda.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining aktivlarini riskka tortishda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan beshta risk darajasi hisobga olingan: 0%, 20%, 50%, 100%, 150%. Ammo riskka tortish bo'yicha Qo'mita tomonidan belgilangan barcha talablar respublikamiz bank amaliyotida o'z aksini topmagan. Masalan, hukumatning qimmatli qog'ozlari riskka tortilayotganda ularning muddati Bazel andozalari bo'yicha hisobga olinadi. Ya'ni, hukumatning faqat 90 kungacha muddatga chiqarilgan obligatsiyalari va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlari risk darajasiga ega emas. Hukumatning 90 kundan ortiq muddatga chiqarilgan barcha qimmatli qog'ozlari 20 % risk darajasiga egadir. Respublikamizda esa,

hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar risk darajasiga ega emas. Holbuki, inflatsiya va devalvatsiya ta'sirida hukumatning qimmatli qog'ozlariga banklar tomonidan qilingan investitsiyalarning real qiymatini pasayish xavfi mavjud.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Bazel standarti, bozor riski, valuta riski, valuta pozitsiyasi, ichki reyting, zaxira ajratmalari, kredit liniyasi, kredit riski, kredit portfeli, kredit yig'majildi, muammoli kredit, to'lov talabnomasi, riskka tortish, foiz riski, fond riski.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Iqtisodchi olimlarning kredit riski xususidagi qanday nazariy qarashlarini bilasiz?
2. Olimlarning foiz riski xususidagi qarashlari xususida nimalarni bilasiz?
3. Foiz riski haqida qanday ilmiy-nazariy qarashlar mavjud?
4. Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining kredit riskini baholashga xizmat qiladigan metodikalaridan xabardormisiz?
5. Tijorat banklari faoliyatidagi valuta riski xususida iqtisodchi olimlar nima deydi?
6. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning bank risklari va ularni boshqarish xususidagi nazariy qarashlaridan xabardormisiz?
7. Bank risklarini markazlashgan tarzda boshqarish tizimi qanday mezonlarga, me'yorlarga va ko'rsatkichlarga asoslanadi?
8. Bank risklarini markazlashmagan tarzda boshqarish tizimi qanday mezonlarga, me'yorlarga va ko'rsatkichlarga asoslanadi?
9. Tijorat banklari faoliyatidagi risklarni ichki reytinglarga asoslangan baholash yondashuvining qanday jihatlari mavjud.

### **III bob. KREDIT RISKI MAZMUNI, UNI BAHOLASH VA BOSHQARISH USULLARI**

#### **3.1. Kredit riski tushunchasi va kredit riskini yuzaga keltiruvchi sabablar**

Kredit riski – bu berilgan kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytmasligi natijasida bankning zarar ko‘rish xavfidir.

Kredit riskini yuzaga keltiruvchi sabablar ikki guruhga ajraladi:

- tashqi sabablar;
- ichki sabablar.

Kredit riskini yuzaga keltiruvchi tashqi sabablarga quyidagilar kiradi:

- makroiqtisodiy konjunkturaning yomonlashishi;
- iqtisodiy va moliyaviy inqirozlarning yuz berishi;
- kredit olgan mijozni moliyaviy ahvolidan yomonlashishi;
- kredit uchun ta‘minot sifatida qabul qilingan garov obyektlarining bozor bahosining pasayishi;
- tijorat bankining kredit portfelida direktiv kreditlar salmog‘ining oshib ketishi;
- mamlakat iqtisodiyotida to‘lovsizlik muammosining paydo bo‘lishi.

Kredit riskini yuzaga keltiruvchi ichki sabablarga quyidagilar kiradi:

- bank boshqaruvi sifatining yomonlashishi;
- bankning kreditlash faoliyatiga davlat organlari va boshqa nazorat organlarining noqonuniy aralashuvi;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishdagi xatoliklar;
- kredit qo‘mitasi majlislarining nomigagina, xo‘jako‘rsinga o‘tkazilishi;
- mijozning kredit to‘loviga layoqatlilikini va ishbilarmonlik riskiga ta‘sirchanligini baholashdagi kamchiliklar;
- kredit uchun ta‘minot obyekti qiymatini to‘g‘ri baholay olmaslik.

Kreditlar tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida yuqori salmoqni egallaganligi sababli, kredit riski darajasining oshishi tijorat bankining likvidiligi va to'lovga qobilligiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Kredit riski darajasining o'zgarishi ikki muhim omilga, ya'ni kredit beruvchi va kredit oluvchining kredit shartnomasi shartlarini qay darajada bajara olishiga bog'liq.

Kredit oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini tahlil qilish va kredit berish bo'yicha loyiha tayyorlash kredit beruvchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi. Ushbu jarayonda kredit beruvchi bank quyidagi savollarga aniq va to'liq javoblar olishi lozim:

– kredit oluvchining iqtisodiy, moliyaviy holati, uning ishbilarmonlik qobiliyati, ishlab chiqarish imkoniyati va moliyaviy boshqaruvi qay darajada?

2. Kreditga bo'lgan talabning qanchalik darajada iqtisodiy jihatdan to'g'ri asoslanganligi va ushbu taklif korxonaning kreditga bo'lgan mavjud talabidan kelib chiqqanmi?

3. Kreditning maqsadi bank uchun to'g'ri keladimi?

Bozor munosabatlari sharoitida yangi-yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning paydo bo'lishi va ularni kredit so'rab tijorat banklariga murojaat qilishlari banklar faoliyatidagi kredit riski darajasining oshish ehtimolini kuchaytiradi. Buning sababi shundaki, mazkur subyektlar hali kredit tarixiga ega emas. Shu sababli, ularga berilgan kreditlarni qaytmaslik ehtimolini kuchaytiradi. Bunday korxonalardan birinchi savolga javob olish muhim hisoblanadi.

Ikkinchi savolga aniq javob olish korxonaning o'z moliyaviy resurslarini qay darajada boshqarayotganligi xususida xulosa chiqarish imkonini beradi. Mazkur xulosani shakllantirishda quyidagi ma'lumotlar tahlili zarur:

- hisob-kitoblarning holati;
- auditorlik tekshiruvlari bo'yicha hisobotlar va xulosalar;
- korxonaning buxgalteriya balansi;
- korxonaning pul oqimi to'g'risidagi hisobot;
- korxonaning foyda va zararlar to'g'risidagi hisoboti.

Uchinchi savolda tijorat banki berilayotgan kredit uning kredit portfeliga mos kelishini, kredit portfelining diversifikatsiya darajasiga ta'sir etishini aniqlashi lozim.

## 3.2. Kredit riskini baholash usullari

Kredit riskini baholashning "Chessero" usuli AQShlik iqtisodchi Chesser tomonidan taklif qilingan. Bunda kredit riski darajasini baholash uchun oltita ko'rsatkichdan foydalaniladi: sof sotish summasining naqd pullar va qimmatli qog'ozlarga nisbati; foizlar va soliqlar chegirib tashlangunga qadar foydaning aktivlarga nisbati; umumiy qarzdorlikning aktivlarga nisbati; asosiy kapitalning aksiyadorli kapitaliga nisbati; aylanma kapitalning sof sotish summasiga nisbati.

Kredit riskini baholashning inqirozli risk usuli moliyaviy inqiroz yuz bergan sharoitda bank kredit portfeli sifatini yomonlashishining chegaraviy darajalari ta'minlash imkonini beradigan baholash usulidir.

Bazel-II kredit riskini o'lchash bo'yicha uch yondashuvni taklif etadi:

- standartlashgan yondashuv;
- ichki reytinglarga asoslangan bazaviy yondashuv (IRB-Internal rating-based approach);
- ichki reytinglarga asoslangan takomillashgan yondashuv.

Bazel-II standartida kredit riski darajasini yaratilgan zaxira ajratmalari miqdori bilan bog'lash taklif qilingan. Mazkur taklifning mazmuni shundan iboratki, kreditning qaytarish muddati tugaganiga 90 kun va undan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, yaratilgan zaxira ajratmasi miqdori kredit bo'yicha umumiy qarzdorlikning 20 foizidan kam bo'lsa, u holda, mazkur kreditlarning risk darajasi 150 foizni tashkil qiladi<sup>18</sup>. Bu esa, muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i nisbatan yuqori bo'lgan tijorat banklarining likvidliligiga va kapital bazasining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, respublikamizda kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari to'liq tijorat banklarining xarajatiga olib boriladi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning sof foydasini kapitallashtirish darajasining pasayishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, muddati o'tgan kreditlarning 150% darajasida riskka tortilishi tijorat banklarining riskka tortilgan aktivlari summasining oshishiga olib keladi. Buning natijasida tijorat banklari kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti pasayadi. Uchinchidan, kreditlarning asosiy qismi tijorat bankining "Hocrho" vakillik

<sup>18</sup> Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II – Basel, 2006. [www.bis.org](http://www.bis.org).

hisobraqamlarini kreditlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu sababli, kreditlarning muddatida qaytmasligi bankning likvidli aktivlari miqdorining kamayishiga va shuning asosida uning joriy likvidlilik darajasining pasayishiga olib keladi.

Bazel-II kredit riskini o'lchash bo'yicha uch yondashuvni taklif etadi<sup>19</sup>:

- standartlashgan yondashuv;
- ichki reytinglarga asoslangan bazaviy yondashuv (IRB-Internal rating-based approach);
- ichki reytinglarga asoslangan takomillashgan yondashuv.

Tijorat banklarida IRB yondashuvi asosida defolt bo'lish ehtimolini baholash uchun quyidagi modeldan foydalaniladi:

$$PD_i = \frac{\Delta ICR_{Ti}}{ICR_{Def} - ICR_{ti}} \times 100\%,$$

bunda:

$PD_i$  - i - mijozning defolt bo'lish ehtimoli;

$\Delta ICR_{Ti}$  - i - mijoz kredit reytingining shartnoma davrida o'zgarishi;

$ICR_{Def}$  - maksimal defolt reytingi.

Ushbu modelni tuzish uchun ikki bosqichdan o'tish talab etiladi. Birinchi bosqich - mijozning kredit reytingini o'zgarish tezligini hisoblash.

$$V_{\Delta ICR_{Ti}} = \frac{ICR_{t_2} - ICR_{t_1}}{(t_2 - t_1)},$$

bu yerda:

$ICR_{t_2}$  - i-mijozning  $t_2$  vaqtdagi kredit reytingi;

$ICR_{t_1}$  - i-mijozning  $t_1$  vaqtdagi kredit reytingi;

$t_1$  - i-mijozning hisobot sanalari ( $t_2 > t_1$ ).

Ko'rsatilgan hisobot sanalari sifatida quyidagilarni ishlatish mumkin:

$t_1$  - hisobot yilining boshi yoki kreditni berish sanasi (kreditlanayotgan mijozlar uchun), agar kredit joriy yilda berilgan bo'lsa;

$t_2$  - defolt ehtimolini baholashdan oldingi so'nggi hisobot sanasi.

<sup>19</sup> Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II – Basel, 2006. [www.bis.org](http://www.bis.org).

Ikkinchi bosqich –  $\Delta ICR_{Ti}$  – изменение кредитного рейтинга i-mijozning kredit shartnomasi davrida kredit reytingini o'zgarishi.

Bazel-II kredit riskini baholashda qo'llaniladigan koeffitsiyentlar quyidagilarni hisobga oladi:

- mamlakatning suveren kredit reytingi;
- bankning reytingi;
- kredit olgan mijozning reytingi;
- bank operatsiyasining turi.

Bazel-II standartida taklif qilingan kredit riskini baholashning standartlashgan yondashuvida tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning riski darajasi kredit olgan mijozning suveren kredit reytingiga qarab aniqlanadi (3.1-jadval).

3.1-jadval

**Tijorat banklarida kredit riskini "standartlashgan yondashuv"  
bo'yicha baholash**

| Kredit reytingi | AAA<br>AA – | A+<br>A – | VVV+<br>VV– | VV–<br>dan past | Reyting siz |
|-----------------|-------------|-----------|-------------|-----------------|-------------|
| Risk darajasi   | 20%         | 50%       | 100%        | 150%            | 100%        |

Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskining darajasini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim:

1. Kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi (KKZQMZAD).

$$KKZQMZAD = (ZAS / BAO'S) \times 100\% \quad (1)$$

bu yerda:

ZAS – zaxira ajratmalari summasi;

BAO'S – bank aktivlarining o'rtacha summasi.

Ushbu ko'rsatkichning yuqori me'yoriy darajasi 1,0 foizni tashkil etadi.

Kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi ko'rsatkichining me'yoriy darajadan yuqori bo'lishi tijorat banki tasniflangan kreditlari tarkibini yomonlashganligidan dalolat beradi.

2. Muddati o'tgan kreditlarning mo'tadil darajasi (MO'KMD).

$$\text{MO'KMD} = (\text{MO'KS} / \text{BK}) \times 100\% \quad (2)$$

bu yerda:

MO'KS – muddati o'tgan kreditlarning o'rtacha summasi;

BK – brutto kreditlar.

Mazkur ko'rsatkichning yuqori me'yoriy chegarasi 3,0 foiz qilib belgilangan.

3. Muddati o'tgan kreditlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasi (MO'KYQMBChD).

$$\text{MO'KYQMBChD} = (\text{MO'KS} / \text{BK}) \times 100\% \quad (3)$$

Ushbu ko'rsatkich 2-formula orqali hisoblanadi va uning yuqori me'yoriy darajasi 5,0 foizni tashkil etadi.

3.2-jadval

**“Mudis” xalqaro reyting agentligi tomonidan kredit riskini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar**

| Ko'rsatkichlar                                                                                                                               | A             | B                            | C                            | D                           | E                    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|------------------------------|------------------------------|-----------------------------|----------------------|
| Muammoli kreditlarning kredit portfelidagi salmog'i, %                                                                                       | 0,8 foizgacha | 0,8 foizdan<br>2,0 foizgacha | 2,0 foizdan<br>5,0 foizgacha | 5,0 foizdan<br>12 foizgacha | 12% va undan yuqori  |
| Muammoli kreditlarning aksiyadorlik kapitali va kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasining umumiy summasiga nisbatan darajasi, % | 10 foizgacha  | 10 foizdan<br>20 foizgacha   | 20 foizdan<br>30 foizgacha   | 30 foizdan<br>50 foizgacha  | 50 % va undan yuqori |

3.2-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, “Mudis” xalqaro reyting agentligi tomonidan kredit riskini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar aniq miqdoriy o'lchamlarga ega.

Tijorat banki moliyaviy barqarorlik darajasi eng yuqori bo'lgan banklar toifasiga, ya'ni “A” toifaga mansub bo'lishi uchun muammoli kreditlarning kredit portfelidagi salmog'i 0,8 foizgacha bo'lishi, muammoli kreditlarning aksiyadorlik kapitali va kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasining umumiy summasiga nisbatan darajasi esa, 10 foizgacha bo'lishi lozim. Aksincha, tijorat banki bankrotlik yoqasida turgan bo'lsa, ya'ni “E” toifaga mansub bo'lsa, u holda, yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlarning darajalari mos

ravishda 12 foizga yetadi va undan yuqori bo‘ladi hamda 50 foizga yetadi va undan yuqori bo‘ladi.

### 3.3. Kredit riskini boshqarish usullari

Kredit riskini boshqarishda bir qator usullardan foydalaniladi. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Tijorat banki kredit portfelini diversifikatsiya qilish usuli.

Tijorat banki kreditlarining 25 foizdan ortiq qismi bitta tarmoq korxonalarida to‘planib qolmasligi kerak.

Kredit portfelining tarmoq xususiyatiga ko‘ra diversifikatsiyalash bo‘yicha me‘yoriy daraja 25% bo‘lsa-da, ko‘pchilik AQSh banklarida ushbu me‘yoriy chegara 10% qilib belgilangan.

2. Kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zararlarni qoplash uchun zaxiralar yaratish usuli.

Xalqaro bank amaliyotida kreditlarni tasniflash va tasniflangan kreditlar bo‘yicha zaxiralar tashkil qilish tartibi Bazell qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo‘yicha amalga oshiriladi. Mazkur metodika bo‘yicha kreditlarni tasniflash va zaxira ajratmalarini tashkil qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi (3.3-jadval).

3.3-jadval

#### Bazel standarti bo‘yicha tasniflangan kreditlar tarkibi va zaxira ajratmalari stavkalari<sup>20</sup>

| No | Tasniflangan kreditlar tarkibi | Zaxira ajratmalari stavkalari, % |
|----|--------------------------------|----------------------------------|
| 1  | Yaxshi kreditlar               | 0                                |
| 2  | Standart kreditlar             | 0                                |
| 3  | Substandart kreditlar          | 20                               |
| 4  | Shubhali kreditlar             | 50                               |
| 5  | Umidsiz kreditlar              | 100                              |

3.3-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, Bazel standarti bo‘yicha “yaxshi kreditlar” va “Standart kreditlar” sifatida tasniflangan kreditlar bo‘yicha zaxira ajratmalari shakllantirilmaydi.

<sup>20</sup> Basel Committee on Banking Supervision. [www.bis.org](http://www.bis.org).

**O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida tijorat banklari tasniflangan kreditlari tarkibi va zaxira ajratmalari stavkalari<sup>21</sup>**

| <b>№</b> | <b>Tasniflangan kreditlar tarkibi</b> | <b>Zaxira ajratmalari stavkalari, %</b> |
|----------|---------------------------------------|-----------------------------------------|
| 1        | Standart kreditlar                    | 1 %                                     |
| 2        | Substandart kreditlar                 | 10 %                                    |
| 3        | Qoniqarsiz kreditlar                  | 25 %                                    |
| 4        | Shubhali kreditlar                    | 50 %                                    |
| 5        | Umidsiz kreditlar                     | 100 %                                   |

3.4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar ko'rsatadiki, O'zbekiston bank amaliyotida qo'llanilayotgan kreditlarni tasniflash amaliyotida, Bazellik standartidan farqli o'laroq, standart kreditlar bo'yicha ham zaxira tashkil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq, tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar quyidagi belgilariga ko'ra tasniflanadi:

#### **1. Standart kreditlar**

O'z muddatida to'lanishiga shubha tug'dirmaydigan kreditlar "standart" deb tasniflanadi. Bunda qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u yetarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlarni, jumladan, mazkur kreditni qaytarish uchun yetarli pul mablag'lari oqimiga, shuningdek, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan strategik rejaga, bozorda raqobatbardoshlik qobiliyatiga, yaxshi mahsulotni ishlab chiqarishga va o'z mahsuloti bo'yicha marketing rejasiga ega bo'ladi.

Mazkur kreditlarning ta'minoti "yaxshi ta'minlangan" kredit mezonlariga mos keladi.

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-sonli qarori. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2015. 24-26 b.

“Standart” deb tasniflangan kreditlarning qaytarilishida muam-molar bo‘lmasligi, asosiy qarz summasi va foizlarining hech qanday qismi muddati o‘tgan yoki shartlari qayta ko‘rib chiqilmagan bo‘lishi lozim.

## **2. Substandart kreditlar**

Kredit olgan subyektning moliyaviy holati barqaror bo‘lgan, lekin ayrim salbiy holatlar yoki tendensiyalar mavjud bo‘lib, agar ular bartaraf etilmasa, moliyalashtirilgan loyihaning amalga oshishiga yoki kredit oluvchining kreditni o‘z vaqtida to‘lash qobiliyatiga nisbatan shubha paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan kreditlarning sifati “substandart” deb tasniflanadi.

Moliyaviy holati yoki ta‘minotni nazorat qilish borasida birmuncha shubhalar bo‘lgan, kredit hujjatlarida yetarlicha axborot bo‘lmagan yoki ta‘minot bo‘yicha hujjatlari bo‘lmagan “standart” deb tasniflangan kreditlarning sifati ham “substandart” deb tasniflanishi mumkin.

## **3. Qoniqarsiz kreditlar**

Quyida keltirilgan omillardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lsa, kreditlarning sifati “qoniqarsiz” deb tasniflanadi:

- asosiy to‘lov manbalari kreditni to‘lash uchun yetarli bo‘lmasa, ta‘minotga qo‘yilgan mulkni va qarz oluvchining boshqa asosiy vositalarini sotish, to‘lanishi lozim bo‘lgan kreditlarni uzaytirishni hisobga olgan holda qo‘shimcha to‘lov manbalarini topish talab etiladigan bo‘lsa;

- kredit oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag‘larining mo‘ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo‘lmasa;

- kredit oluvchining kapitali yetarli bo‘lmasa;

- ushbu sohaga nisbatan tendensiyalar va istiqbollar barqaror bo‘lmasa;

- ta‘minot qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo‘lmaganda asosiy qarzning to‘lanmagan summasiga teng bo‘lsa;

- kreditning asosiy qarz summasi va foizlari bo‘yicha muddati o‘tgan qarzдорlik mavjud bo‘lib, uning muddati 90 kundan oshmagan bo‘lsa.

## **4. Shubhali kreditlar**

Quyidagi omillardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lsa, kreditning sifati “shubhali” deb tasniflanadi:


– “qoniqarsiz” kreditlarning hech bo‘lmaganda birorta ko‘rsatkichi, shuningdek ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud bo‘lsa (bozorda oson sotiladigan ta‘minotning mavjud emasligi yoki ta‘minlanmagan kreditlarning mavjudligi yoki kredit oluvchining bankrot deb e‘lon qilinishi);

– yaqin kelajakda kreditni qisman to‘lanish ehtimoli mavjud bo‘lsa;

– asosiy qarz va foizlar bo‘yicha 90 kundan ortiq, lekin 180 kundan oshmagan muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa.

### 5. Umidsiz kreditlar

Shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan yoki qaytmasligidan dalolat beruvchi omillar yoki alomatlar mavjud bo‘lgan hamda qaytmaydigan yoki qiymati juda pastligi tufayli hisobini balansda aktiv sifatida yuritilishi maqsadga muvofiq emas, deb baholanadigan kreditlar sifati “umidsiz” deb tasniflanadi.



3.1-rasm. AT «Asakabank» va AT «Ipotekabank»da kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining aktivlarning o‘rtacha summasiga nisbatan darajasi,<sup>22</sup> %

3.1-rasm ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, 2010–2015-yillarda Ipoteka bankda kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan

<sup>22</sup> Rasm AT«Ipotekabank»ning yillik hisobotlari ma‘lumotlari ([www.ipotekabank.uz](http://www.ipotekabank.uz)) va AT«Asakabank»ning yillik hisobotlari ma‘lumotlari ([www.asakabank.uz/ru](http://www.asakabank.uz/ru)) asosida muallfi tomonidan shakllantirilgan.

zaxira ajratmalari darajasi me'yoriy darajadan past bo'lgani holda, Asakabankda ushbu ko'rsatkichning darajasi me'yoriy darajaga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bu esa, Asakabankda tasniflangan kreditlar tarkibini yomonlashganligidan dalolat beradi va uning kreditlash samaradorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Respublikamiz bank amaliyotida, 2015-yilning 31-dekabr holatiga, kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi 5,0 foizni tashkil etadi<sup>23</sup>.

3. Muammoli kreditlarga nisbatan cheklovlar o'rnatish usuli.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida, xususan, G'arbiy Yevropa davlatlarining bank amaliyotida muddati o'tgan kreditlarning jami kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'ini 3 foizdan oshmasligi normal holat hisoblanadi. Bu ko'rsatkichning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaraviy miqdori 5 foizni tashkil qiladi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Kredit, kredit riski, kredit portfeli, kreditning ta'minlanganligi, kredit to'loviga layoqatlilik, kredit bo'yicha yo'qotishlar zaxirasi, garov, diversifikatsiya, tijorat banki, makroiqtisodiy omillar, mikroiqtisodiy omillar, iqtisodiy qonunchilik, zarar ko'rish xavfi, Chessero usuli, standartlashgan yondashuv, ichki reytinglarga asoslangan bazaviy yondashuv, ichki reytinglarga asoslangan takomillashgan yondashuv.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Kredit riski nima?
2. Kredit riskini yuzaga keltiruvchi qanday omillarni bilasiz?
3. Kredit riski tijorat bankining faoliyatiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?
4. Kredit portfelining diversifikatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Mijozning kredit to'loviga layoqatliligi qanday aniqlanadi?

<sup>23</sup> Аналитический обзор банковского сектора Узбекистана по итогам 2015 года  
Аналитический обзор. – Ташкент, 2016. – № 42. – С. 63.

6. Kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari qay tartibda shakllantiriladi?
4. Kredit riskini baholashning qaysi usullarini bilasiz?
5. Kredit riskini boshqarish usullari haqida nimalarni bilasiz?

## **IV bob. FOIZ RISKI VA UNI BOSHQARISH USULLARI**

### **4.1. “Foiz riski” tushunchasi**

Foiz riski – bu foiz stavkalarining tebranishi natijasida tijorat bankining zarar ko‘rish xavfidir.

Tijorat banklariga nisbatan foiz riski foiz stavkalarining tebranishi natijasida sof daromadning kamayishi va kapital qiymatining ma’lum qismining yo‘qotilishi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Foiz riski ta’sirida tijorat banki katta miqdorda daromad olishi mumkin. Ammo, foiz riskining chuqurlashishi sharoitida foiz stavkalarining bank uchun noqulay tebranishi tijorat bankini katta miqdorda zarar ko‘rishga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, tijorat banklari rahbariyati foiz riskini boshqarish samaradorligini oshirish masalasiga katta e’tibor qaratadilar.

Bazel qo‘mitasining 1997-yilda ishlab chiqilgan “Foiz stavkalari risklarini boshqarish prinsiplari” nomli hujjatida foiz riskini yuzaga keltiruvchi to‘rt omilning mavjudligi e’tirof etilgan:

#### **1. Baholarning o‘zgarish riski**

Ushbu omil tijorat banklari faoliyatidagi foiz riskini yuzaga keltiruvchi asosiy sabab hisoblanadi.

Bunda foiz riski aktivlar va passivlarning muddatlari o‘rtasida nomuvofiqlikning yuzaga kelishi natijasida paydo bo‘ladi. Masalan, qisqa muddatli depozit hisobidan qat’iy belgilangan stavkadagi uzoq muddatli kredit beriladi. Bunday holatda bozor stavkalarining oshishi natijasida bankda sof daromad kamayadi, ya’ni bank zarar ko‘radi. Buning sababi shundaki, berilgan kreditning foiz stavkasi o‘zgarmaydi, ammo jalb qilingan depozitning bahosi ko‘tariladi.

#### **2. Daromadlilikning o‘zgarishi**

Aktivlar va passivlar bo‘yicha foiz stavkalari o‘zgarishini davriy oraliqlarda mos kelmasligi natijasida daromadlilik darajasi pasayadi. Masalan, tijorat banki kredit bergandan keyin o‘tgan ma’lum davr mobaynida kreditlarning foiz stavkasi oshadi. Natijada tijorat bankida kreditlar bo‘yicha yo‘qotilgan daromad yuzaga keladi.

#### **3. Bazis riski**

Bazis riski turli moliyaviy instrumentlar bo'yicha olingan va to'langan foizlarni tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan nomuvofiqliklar natijasida yuzaga keladi. Masalan, bir yil muddatga berilgan kreditning oylik to'lovi LIBOR stavkasi bo'yicha qayta baholanganda, LIBORning o'zgarishi bazis riskini yuzaga keltiradi.

Xalqaro ssuda kapitallari bozorida xorijiy valutalardagi kreditlarning bahosi har kuni aniqlanadi va turli omillarning ta'sirida ular tebranib turadi. Bu esa, bazis riskini yuzaga kelishi uchun zamin yaratadi.

#### 4. Opsionlar bilan bog'liq bo'lgan risklar.

Koll va put opsionlar bo'yicha foiz stavkalarining o'zgarishi, bankning pozitsiyasi muvozanatlashmagan sharoitda, zararni yuzaga keltirishi mumkin.

Opsionlarning birinchi standarti Yevropa standarti, deb ataladi va bu opsionlar o'z egasiga faqat shartnoma muddati tugagandan so'ng opsiondan foydalanish huquqini beradi. Opsionlarning ikkinchi standarti esa, amerika standarti deyiladi va mazkur opsionlar o'z egasiga opsion shartnomasi muddatining istalgan vaqtida opsiondan foydalanish huquqini beradi. Demak, valuta opsionlarining amerika standartida foiz riski darajasi Yevropa standartiga nisbatan yuqori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining tijorat banklarida valutilarni sotib olish maqsadida berilgan opsionlar 92728-«Opsion bitimi bo'yicha sotib olish» hisobraqamining debetida va 96379-«Opsion bo'yicha sotib olish kontr hisobvarag'i»ning kreditida hisobga olinadi.

Tijorat banklarining valuta opsionlaridan oladigan daromadlari 45404-hisobraqamining kreditida, opsionlardan ko'rilgan zararlar esa, 55306-hisobraqamining debetida hisobga olinadi.

### 4.2. Foiz riskini baholash usullari

Tijorat banklari faoliyatidagi foiz riskini baholashning quyidagi usullari mavjud:

1. Aktivlar va passivlar o'rtasidagi farqni tahlil qilish usuli (GEP usuli).
2. Dyuratsiya usuli.
3. Imitatsion modellashtirish usuli.

#### 4. Statistik tahlil usullari.

GEP usuli aktivlar va passivlar o'rtasidagi farqni o'lchashga asoslangan bo'lib, ushbu aktivlar va passivlarning qiymati ma'lum davriy oraliqda o'zgaradi. Bunda aktivlar va passivlar quyidagicha guruhlanadi:

RSA – o'zgaradigan foiz stavkalariga ega bo'lgan aktivlar;

RSL – o'zgaradigan foiz stavkalariga ega bo'lgan passivlar.

Agar  $RSA > RSL$  bo'lsa, u holda GEP ijobiy hisoblanadi. Agar  $RSA < RSL$  bo'lsa, u holda GEP salbiy bo'ladi.

Agar foiz stavkalari oshsa, ijobiy GEPga ega bo'lgan banklarda foiz marjasi o'sadi. Chunki, bunday sharoitda o'zgaradigan foiz stavkasiga ega bo'lgan aktivlar miqdori shunday stavkadagi passivlar miqdoridan katta bo'ladi.

Dyuratsiya usuli bank kapitalining kutilayotgan o'zgarishini foiz stavkalarini o'zgarishini prognozlash yo'li bilan baholash imkonini beradi. Ushbu usul dyuratsiyani aniqlashga asoslangan.

Dyuratsiya – bu foizli aktivlar va foizli passivlarning muddatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikdir.

$$DGAP = DA - (DL \times L - A).$$

Bu yerda:

DGAP – dyuratsiya;

DA – aktivlar dyuratsiyasi;

DL – passivlar dyuratsiyasi;

L – passivlar;

A – aktivlar.

Dyuratsiyani aniqlashda faqat foiz ko'rinishida daromad keltiruvchi instrumentlar hisobga olinadi.

Imitatsion modellashtirish bank balansining tarkibini va foiz stavkalari daromadlilikining kelgusidagi o'zgarish ssenariylarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Imitatsion modellashtirish natijalari hisob-kitoblardagi u yoki bu xatoliklarning qo'llanilishini asoslab berishga bog'liq.

Imitatsion modellashtirishda modellashtirishning ikki usulidan foydalaniladi:

1. Statik.

2. Dinamik.

Statik modellashtirishga ko'ra, balans va balansdan tashqari talab va majburiyatlarning tarkibi o'zgarmaydi, ya'ni bank tahlil qilingan

davr mobaynida resurslar jalb qilishni ham, resurslar joylashtirishni ham rejalashtirmagan.

Dinamik modellash tirish balans aktivlari va passivlari joriy tarkibi va balansdan tashqari moddalardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ammo bunda kelgusida jalb qilinadigan va joylashtiriladigan resurslar hisobga olinadi.

Tahlilning statistik usullari. Foiz riskini miqdoriy baholash maqsadida keng qo'llaniladigan statistik usul bo'lib, **VAR-tahlil** usuli hisoblanadi.

Ushbu usul moliyaviy instrumentning foiz stavkasini o'zgarishi natijasida bank tomonidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni miqdori jihatdan baholash imkonini beradi.

### **4.3. Foiz riskini boshqarish usullari**

Foiz riskini boshqarishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

#### **1. Foizli svop usuli**

Ushbu usulda asosiy e'tibor qat'iy belgilangan stavkada jalb qilingan resurslar miqdori bilan qat'iy belgilangan stavkadagi aktivlar miqdori o'rtasidagi, suzib yuruvchi stavkada jalb qilingan resurslar miqdori bilan suzib yuruvchi stavkadagi aktivlar miqdori o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga qaratiladi. Agar mazkur mutanosiblik ta'minlanmasa bank faoliyatidagi foiz riski darajasi foiz stavkalarining o'zgarishi bilan oshib ketadi.

#### **2. Opsionlardan foydalanish usuli**

Opsion – bu qimmatli qog'oz bo'lib, ma'lum bir qimmatli qog'ozni yoki valutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish yoki sotish huquqini beradi.

Opsionlarning ikki turi mavjud:

- koll opsion;
- put opsion.

Koll opsion qimmatli qog'oz yoki valutani sotib olish huquqini beradi. Put opsion esa, qimmatli qog'oz yoki valutani sotish huquqini beradi.

Agar tijorat banki koll va put opsionlar bo'yicha pozitsiyalarni muvofiqlashtirmasa, u holda, opsiondan foydalanganlik sharoitida ham foiz riski darajasi oshishi mumkin.

### 3. Foiz stavkalarining dinamikasini prognoz qilish usuli

Prognoz qilish natijalari aktivlar va passivlar bo'yicha foiz stavkalarining tebranishi va unga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahliliga asoslanadi. Tahlil jarayonida har bir aktiv va passiv turi bo'yicha foiz stavkalarining o'zgarish darajasi va ushbu o'zgarishga har bir omilning ta'sirini bog'liqlik darajasi aniqlanadi.

Prognoz natijalari bo'yicha foiz riskini boshqarish pozitsiyasi tanlanadi.

Xalqaro bank amaliyotida foiz riskini boshqarishning 3 pozitsiyasi mavjud:

#### A. Normal pozitsiya.

Bunda  $GEP/Valuta\ balans < 10\%$  - normal pozitsiya.

#### B. Taktik pozitsiya.

Bunda  $GEP/Valuta\ balans = 10-12\%$ .

#### 3. Strategik pozitsiya.

Bunda  $GEP/Valuta\ balans > 12\%$

### 4. Bank aktivlari va passivlari tarkibini o'zgartirish usuli

Masalan, tijorat bankida resurlarning yetarli bo'lmasligi sababli, ussuda kapitallari bozoridan doimiy ravishda resurslar jalb qilishi mumkin. Bunday sharoitda ssuda kapitallari bozorida resurslar bahosining oshishi tijorat bankining foizli xarajatlari miqdorining oshishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat bankining sof foizli daromadi miqdorining kamayishiga olib keladi.

Foiz riskini boshqarishning quyidagi prinsiplari mavjud:

1. Bank boshqaruv organlari tomonidan foiz riskini boshqarish strategiyasi va siyosatini tasdiqlash prinsipi.

2. Tijorat banklarida foiz riskini boshqarishga ma'sul bo'lgan aniq shaxslar yoki qo'mitalarning mavjud bo'lish prinsipi.

3. Foiz riskini boshqarish bo'yicha aniq yo'riqnomalar va tavsiyalarni mavjud bo'lish prinsipi.

4. Tijorat banklariga risklarni identifikatsiya qilish imkonini beradigan tizimning mavjudligi prinsipi.

5. Foiz riskini yuzaga kelish sabablari va manbalarini to'la qamrab oladigan baholash tizimining mavjudligi prinsipi.

6. Tijorat banklarida foiz riskiga nisbatan ichki operatsion limitlar o'rnatish prinsipi.

7. Foiz riskining darajasini baholash, monitoring va nazorat qilish imkonini beradigan axborot tizimining mavjudligi prinsipi.

## **Tayanch soʻz va iboralar**

Foiz riski, foiz stavkasi, baholarning oʻzgarishi, daromad, suzuvchi foiz stavkasi, belgilangan foiz stavkasi, bank aktivlari, bank passivlari,

### **Nazorat uchun savollar**

1. Foiz riski nima?
2. Foiz riskini yuzaga keltiruvchi qaysi omillarni bilasiz?
3. Baholarning oʻzgarish riski deganda nimani tushunasiz?
4. Tijorat banklari kreditlari foiz stavkalarining qanday turlari mavjud?
5. Bazis riski deganda nimani tushunasiz?
6. Opsionlar bilan bogʻliq boʻlgan qanday foiz risklari mavjud?
7. Foiz riskini boshqarish qaysi prinsiplarga tayanadi?
8. Foiz riskini baholashning qaysi usullarini bilasiz?
9. Foiz riskini boshqarishning qaysi usullaridan xabardorsiz?

## V bob. OPERATSION RISK

### 5.1. "Operatsion risk" tushunchasi

Operatsion risk – bu bank xodimlarining aybi bilan yoki bankning dasturiy-texnik ta'minotidagi uzilishlar tufayli tijorat bankining zarar ko'rish xavfidir.

So'nggi yillarda dunyo banklari amaliyotida operatsion risk darajasining oshishi kuzatilmoqda. Bu esa, ko'proq bank xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari natijasida sodir bo'lmoqda.

Tijorat banklarining xodimlari aksariyat hollarda mijozlari bilan jinoiy til biriktirib, noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirmoqdalar. Shu sababli, pullarni noqonuniy o'zlashtirishga nisbatan kurash kuchaymoqda.

Xorijiy davlatlarda, xususan, AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmga qarshi kurashishda quyidagi usullardan keng foydalanilmoqda.

- moliya muassasalarining direktorlari, ma'sul xodimlari va xodimlari:

- ma'lumotlarni oshkora qilish bo'yicha shartnomalarda ko'zda tutilgan cheklovlarni buzganligi uchun jinoiy yoki fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan maxsus huquqiy me'yorlar bilan himoyalangan bo'lishlari shart;

- qonun bo'yicha shubhali operatsiyalar bo'yicha tegishli rasmiy organga berilayotgan ma'lumotlarni oshkor etish huquqiga ega bo'lmasligi kerak.

- moliya muassasalari pullarni jinoiy o'zlashtirish va terrorizmga qarshi kurash dasturlarini ishlab chiqishlari shart. Mazkur Dasturlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- ichki siyosat, nazorat jarayonlari va choralarini ishlab chiqish, shu jumladan, xodimlarni yollash sharoitida yuqori standartlarni ta'minlash uchun tanlov jarayonlari va vazifalar bajarilishini ta'minlashni boshqarish mexanizmlarini;

- xodimlarni uzluksiz o'qitish dasturini;

- tizimni tekshirish uchun auditorlik funksiyasini.

– nomoliyaviy korxonalar va ularning mutaxassislariga nisbatan quyidagi talablar qo‘llaniladi:

– advokatlar, notariuslar, boshqa xodim mutaxassislar-yuristlar va buxgalterlar mijozning nomidan va uning torshirig‘iga ko‘ra amalga oshirayotgan shubhali operatsiyalari bo‘yicha xabar berishlari shart;

– nodir metallar va qimmatbaho toshlar bilan savdo qiluvchilar belgilangan miqdorda va undan oshgan miqdorda naqd pul mablag‘lari bilan amalga oshirilayotgan shubhali operatsiyalar bo‘yicha xabar berishlari shart;

– trast va korporativ xizmatlarni yetkazib beruvchilar o‘zining mijozi uchun va uning topshirig‘iga ko‘ra amalga oshirayotgan shubhali operatsiyalari xususida xabar berishlari shart.

## 5.2. Operatsion riskni baholash usullari

Tijorat banklari faoliyatidagi operatsion riskni baholashda bazaviy indikativ yondashuvdan keng foydalaniladi. Mazkur baholash usuli Bazel qo‘mitasining ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan.

Bazaviy indikativ yondashuvga ko‘ra:  $KBIA = [(\sum GI1...n \alpha)]/n$ , bu yerda:

KBIA – tijorat bankining kapitaliga bo‘lgan talab;

GI – so‘nggi uch yil mobaynidagi har yillik ijobiy yalpi daromad;

n – o‘tgan uch yil ichida yalpi daromad ijobiy bo‘lgan yillar soni;

$\alpha = 15\%$  – bu ko‘rsatkich Bazel qo‘mitasi tomonidan indikatorning tarmoq darajasiga nisbatan o‘rnatilgan.<sup>24</sup>

Bazel qo‘mitasining yangi standartida taklif etilgan standartlashgan yondashuvda beta omillarning ulushi turlicha taqsimlangan (5.1-jadval).

5.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, korporativ moliyalashtirish va savdo operatsiyalari nisbatan yuqori ulushni egallaydi. Buning sababi shundaki, tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida kreditlar va qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalari eng yuqori salmoqni egallaydi.

<sup>24</sup> Международная конвергенция измерения капитала и стандартов капитала. Уточнение рамочных подходов. Банк международных расчетов. Базел, 2004. С. 156.

**Operatsion riskni baholash bo'yicha standartlashgan  
yondashuvda beta omillar ulushining taqsimoti<sup>25</sup>**

| <b>Biznes-liniyalar</b>         | <b>Beta omillar</b> |
|---------------------------------|---------------------|
| Korporativ moliyalashtirish     | 18%                 |
| Savdo                           | 18%                 |
| Bankning chakana operatsiyalari | 12%                 |
| Bankning tijorat operatsiyalari | 15%                 |
| To'lovlar va hisob-kitoblar     | 18%                 |
| Agentlik xizmatlari             | 15%                 |
| Aktivlarni boshqarish           | 12%                 |
| Chakana brokerlik xizmatlari    | 12%                 |

Bazel-II operatsion riskni baholashda qo'llaniladigan koeffitsiyentlar quyidagilarni hisobga oladi:

- mamlakatning suveren kredit reytingi;
- bankning reytingi;
- kredit olgan mijozning reytingi;
- bank operatsiyasining turi.

Ta'kidlash joizki, taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida Fuzzy Logic Toolbox dasturiy ta'minotidan foydalangan holda operatsion riskni ekspert baholash usulidan keng foydalanilmoqda.

Fuzzy Logic Toolbox dasturiy ta'minoti toq sonli mantiqiy tizimni loyihalash uchun zarur bo'lgan instrumentlarni o'zida aks ettirgan kompyuter dasturidir.

Ushbu dasturiy ta'minot paketi toq sonli algoritmlar va neyrosetlar orqali ekspert tizimlarini yaratish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu paket grafik shaklidagi interfeysni ham o'z ichiga oladi.

Paketning barcha funksiyalari aniq tilda yozilgan bo'lib, algoritmlarning bajarilishini nazorat qilish imkonini beradi.

Fuzzy Logic Toolbox dasturiy ta'minoti operatsion riskni baholashda qo'llash uchun qulay hisoblanadi. Buning sababi shundaki, mazkur tizim grafik shaklidagi interfeys va toq sonli algoritmlar orqali operatsion riskning darajasidagi o'zgarishlarni aniqlash va kuzatib borish imkonini beradi.

<sup>25</sup> Международная конвергенция измерения капитала и стандартов капитала. Уточнение рамочные подходы. Банк международных расчетов. – Базел, 2004. – С. 158.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2012-yil 29-dekabrda 36/2-sonli "Tijorat banklari kapitalining monandiligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi yo'riqnomasiga asosan respublikamiz bank amaliyotiga operatsion riskni baholash bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan taklif etilgan bazaviy indikativ yondashuv qabul qilindi<sup>26</sup>.

Ushbu yo'riqnomaga ko'ra, operatsion risk quyidagicha aniqlanadi:

$$OR = 10 \times BYaDO'S \times 15\%$$

bu yerda:

OR – operatsion risk;

BYaDO'S – bankning so'nggi 3 yildagi yalpi daromadining o'rtacha summasi.

Bunda yalpi daromad sifatida tijorat bankning foizli daromadlari va foizsiz daromadlarining yig'indisi sifatida olinadi.

### 5.3. Operatsion riskni boshqarish usullari

Bazel qo'mitasi 2004-yilning oktabr oyida so'nggi varianti e'lon qilingan Bazel- II standartida operatsion riskni boshqarish bo'yicha yangi talablari o'z aksini topgan. Xususan, Bazel-II da aktivlarni riskka tortilgan summasi (RWA) tarkibi o'zgaradi va ushbu tarkib quyidagicha aniqlanadi:

$$RWA = CRWA + OR + MP$$

Bu yerda:

CRWA-aktivlarni kredit riskiga tortilgan summasi

OR- operatsion risk

MR-bozor riski.

Bazel-II standartida operatsion risk bo'yicha kapitalning yetarliligini hisoblash uchun uch usuldan foydalanish tavsiya etilgan. Birinchi usul bazaviy indikativ usuli, ikkinchi usul – standartlashtirilgan usul, uchinchi usul esa, kengaytirilgan usul hisoblanadi. Mazkur usullar bo'yicha hisoblangan kapitalning yetarlilik koeffitsiyentlari bir-

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklari kapitalining monandiligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent. 2013. - №5 (557). – B. 48.

biridan sezilarli darajada farqlanadi. Shu sababli, fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mavjud uch usuldan birini tanlab olishi va respublikamiz tijorat banklarining barchasida operatsion risk bo'yicha kapitalning yetarliligi ana shu usulda hisoblanishi lozim. Fikrimizcha, kapitalning yetarliligini hisoblashning kengaytirilgan usulini respublikamiz bank amaliyotida qo'llash uchun sharoit mavjud emas. Chunki ushbu usul banklarning o'zlari ishlab chiqqan reyting baholash natijalariga asoslanadi. Respublikamiz banklarida esa, operatsion riskni baholashning reyting usuli mavjud emas.

Amalga oshirilgan tahlillarning natijalari ko'rsatdiki, operatsion riskni baholash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan metodikada asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilgan:

1. Tijorat banklarining yalpi daromadi miqdori;
2. Tijorat banki kapitalining yetarliligi;
3. Tijorat banklari aktivlarining sifati.

#### 5.2-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki,  
Asaka bank va Sanoatqurilish banki yalpi daromadlarining  
miqdori,<sup>27</sup> mlrd so'm**

|                      | 2012-yil | 2013-yil | 2014-yil | 2014-yilda 2012-yilga nisbatan o'zgarishi, % |
|----------------------|----------|----------|----------|----------------------------------------------|
| TIF Milliy banki     | 757      | 768      | 920      | 121,5                                        |
| Asaka bank           | 354      | 373      | 510      | 144,1                                        |
| Sanoatqurilish banki | 309      | 403      | 445      | 144,0                                        |

5.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2012–2014-yilda har uchala bankda yalpi daromad miqdorining o'sish tendensiyasi kuzatilgan. O'sish sur'atlari, ayniqsa, Asaka bank va Sanoatqurilish bankida yuqori bo'lgan. Bu esa, operatsion riskni boshqarish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.


Tijorat banklarining yalpi daromadi miqdoriga ko'p sonli omillar ta'sir ko'rsatadi. Unga, ayniqsa, foizli va foizsiz xarajatlar miqdorining

<sup>27</sup> TIF Milliy banki, Asakabank va Sanoatqurilishbankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

o'zgarishi, bankning resurslar miqdorining kamayishi, aktivlar portfeli sifatining yomonlashishi kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklari faoliyatining birlamchi yo'nalishi kreditlash bo'lganligi sababli, ularning yalpi daromadlari hajmida kreditlardan olingan foizli daromadlar yuqori salmoqni egallaydi.

Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar ham tijorat banklari uchun asosiy operatsiya turlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, tijorat banklarining yalpi daromadi hajmida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan daromadlar sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi.



5.1-rasm. "Ipoteka-bank" ATBning daromadlari tarkibi<sup>28</sup>

5.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Ipoteka bank yalpi daromadi hajmida foizli daromadlar yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, bank yalpi daromadining barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Ipoteka bankning foizli daromadlari (250,94 mlrd so'm)ning jami daromad (446,0 mlrd so'm)lar tarkibidagi ulushi 56 foizni tashkil qilgan. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari yalpi daromadlari tarkibida foizli daromadlarning salmog'i kamida 60 foizni tashkil etishi lozim. Tijorat banklari faoliyatining birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy yo'nalishi kreditlash bo'lganligi sababli tijorat banklari foizli daromadlarining asosiy qismini kreditlardan olinadigan foizlar tashkil etishi lozim. Agar tijorat banki yalpi daromadlarining asosiy qismini, aniqrog'i, 40-50 foiz qismini operatsion daromadlar tashkil etsa, u

<sup>28</sup> "Ipoteka-bank" ATB hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

holda, ushbu holat tijorat bankining mamlakat ssuda kapitallari bozoridagi mavqeyining zaif ekanligidan, uning kredit siyosati to'g'ri shakllantirilmaganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining tarkibida yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar salmog'ining kichik ekanligi ular aktivlarining daromadlilikiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda. Buning sababi shundaki, tijorat banklarining joriy likvidiligi asosan yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar hisobidan ta'minlanishi lozim. Mazkur qimmatli qog'ozlarning daromadlilik darajasi nisbatan past bo'lsa-da, ularning likvidlilik darajasi yuqoridir.

Yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning tijorat banklari brutto aktivlarining hajmida kichik salmoqqa ega ekanligi ularni joriy likvidlilikni ta'minlash uchun katta miqdorda kassali aktivlarni saqlab turishga majbur qiladilar. Kassali aktivlar esa, daromad keltirmaydigan va daromadlilik darajasi past bo'lgan aktivlardan iboratdir (kassadagi naqd pullar, bankning "Hocupo" vakillik hisobraqamidagi pul mablag'lari va flout).

Respublikamizda yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar sifatida davlatning qisqa muddatli qarz majburiyatlari (obligatsiyalari), davlatning o'rta muddatli xazina majburiyatlari va Markaziy bankning obligatsiyalari e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining 2005-yildan buyon profitsit bilan bajarilayotganligi davlat qimmatli qog'ozlarining emissiya hajmini oshirishga imkon bermayapti.


Hamon tijorat banklari uchun birlamchi faoliyat yo'nalishi kreditlash bo'lib qolganligi sababli, ularning yalpi daromadining asosiy qismi kredit operatsiyalaridan olinadigan daromad evaziga shakllantirilishi lozim. Shu sababli, foizli daromadlarning yalpi daromadlar hajmidagi salmog'ining o'zgarish sabablarini aniqlash, uning salmog'ini keskin tushib ketishiga yo'l qo'ymaslik choralari ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bazel qo'mitasi tijorat banklari yalpi daromadini sof foizli daromad va sof foizsiz daromad o'rtasidagi farq sifatida aniqlashni tavsiya etadi va qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan realizatsiya qilingan foyda va zararlarni yalpi daromadni hisoblashda inobatga olmaslikni maslahat beradi. Ammo respublika Markaziy bankining 2012-yil 29-dekabrda 36/2-sonli yo'riqnomasida muddatli valuta

bitimlari bo'yicha yuzaga kelgan realizatsiya qilinmagan foyda va zararlarni yalpi daromadni hisoblashda inobatga olish yoki olmaslik to'g'risida hech narsa deyilmagan.

Bizga ma'lumki, muddatli valuta bitimlari bo'yicha yuzaga kelgan realizatsiya qilinmagan foyda realizatsiya qilingan foyda hisobraqamida (45405-hisobraqam), realizatsiya qilinmagan zararlar esa, realizatsiya qilingan zararlar hisobraqamida (55306-hisobraqam) hisobga olinadi.

Buning sababi shundaki, birinchidan, ular hali muddati tugamagan valuta bitimlari bo'yicha yuzaga kelgan bo'lib, bitim ijrosi paytida amaliy ahamiyat kasb etmasligi mumkin; ikkinchidan, realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar ikki holatda tijorat bankining balansidan chiqariladi: valuta bitimining muddati tugaganda va Markaziy bankka yangi moliyaviy hisobot topshirilayotganda. Shu sababli, yalpi daromad aniqlangandan keyin hech qancha vaqt o'tmay realizatsiya qilinmagan foyda va zarar summasi o'zgarishi yoki yo'q bo'lib ketishi mumkin.



5.2-rasm. TIF Milliy banki, Asaka bank va Sanoatqurilish bankda operatsion risk miqdori<sup>29</sup>, mlrd so'm (01.01.2015-y.)

<sup>29</sup> TIF Milliy banki, Asakabank va Sanoatqurilishbankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

5.2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, TIF Milliy bankida operatsion risk miqdori yuqori. Bu esa, ushbu bankda boshqa banklarga qaraganda yalpi daromad miqdorining katta ekanligi bilan izohlanadi.

Shu o'rinda tijorat banklari kapitalining tarkibi Bazel standartlari talablariga to'liq javob bermasligi, Bazel standartining bank nazoratiga oid bo'lgan prinsiplarini respublikamiz bank nazorati tizimiga to'liq joriy etilmaganligi, Bazel standartining tijorat banklari faoliyatiga oid ma'lumotlarning oshkoraligini ta'minlashga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish yo'li bilan bozor intizomini rag'batlantirish xususidagi talabini respublikamizning bank nazorati tizimiga to'liq joriy etilmaganligini e'tirof etish joiz.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Operatsion risk, tijorat banki, dasturiy-texnik ta'minoti, bazaviy indikativ yondashuv, tijorat bankining yalpi daromadi, beta omillari, mamlakatning suveren kredit reytingi, bankning reytingi, kredit olgan mijozning reytingi, bank operatsiyasining turi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Operatsion risk nima?
2. Operatsion riskni baholashning qanday usullari mavjud?
3. Operatsion riskni boshqarish tijorat banklari uchun qay darajada muhim?
4. Operatsion riskni boshqarishning qaysi usullarini bilasiz?
5. Bazel qo'mitasining operatsion riskni baholash va boshqarish bo'yicha qanday talablari mavjud?

## **VI bob. TIJORAT BANKLARIDA PORTFEL RISKI VA UNI BOSHQARISH USULLARI**

### **6.1. "Portfel riski" tushunchasi**

Tijorat bankining portfel riski deganda bank tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlarning baholarini o'zgarishi natijasida bankning zarar ko'rish xavfi tushuniladi.

Tijorat bankining qimmatli qog'ozlar portfeli – bu bank tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlarning yig'indisidir.

Bazel standartida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfeli o'rniga savdo portfeli tushunchasi qo'llaniladi va banklarning savdo portfeliga quyidagicha ta'rif beriladi: "tijorat bankining savdo portfeli – bu moliyaviy instrumentlar va tovarlarning yig'indisi bo'lib, ular bankda savdo maqsadida yoki savdo portfelining boshqa elementlarini xedjirlash maqsadida bankda saqlanadi"<sup>30</sup>.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfeli, odatda, ikki maqsadni ko'zlagan holda shklantiriladi:

- bankning joriy likvidligini ta'minlash maqsadida;
- daromad olish maqsadida.

Yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar, birinchi navbatda, hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar tijorat banklarining joriy likvidligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Korporativ qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar yuqori riskli bo'lishi bilan birga, tijorat banklariga katta miqdorda daromad olish imkonini beradi.

Risklarni boshqarish nazariyalari nuqtayi nazaridan, optimal qimmatli qog'ozlar portfelini shklantirishning asosiy maqsadi bo'lib, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan daromadlarning ushbu investitsiyalarni amalga oshirish uchun jalb etilgan resurslar bo'yicha xarajatlardan ortiq bo'lishini ta'minlash hisoblanadi.

<sup>30</sup> Международная конвергенция измерения капитала и стандартов капитала: Уточнение рамочных подходов. Пер. с англ. Базель: Банк международных расчетов, 2004. С. 168. [www.bis.org](http://www.bis.org)

Biroq, amaliyotda shunday holatlar ham bo'ladiki, investor sho'ba korxonalar tarmog'ini tashkil qilish yo'li bilan o'zining boshqa bozorlaridagi ta'sirini kuchaytirish maqsadida foyda keltirmaydigan, vaqtinchalik nolikvid portfelni shakllantiradi. Bunday investitsiyalar kelgusida qilingan xarajatlarni qoplash va katta foyda olish maqsadida amalga oshiriladi.

Portfelli risk doimo tizimli risk va inflatsiya riski bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. O'z navbatida, tizimli risk quyidagi omillar bilan bevosita bog'liqdir:

- aksiyalarning bahosi va daromadlilik darajasining o'zgarishi;
- obligatsiyalar bo'yicha joriy va kutilayotgan daromadlilikning o'zgarishi;
- dividendlarni kutilayotgan miqdorining o'zgarishi;
- bozor konyunkturasining o'zgarishi natijasida qo'shimcha foyda miqdorining o'zgarishi.

Ayniqsa, moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar davrida tijorat banklari va boshqa moliya-kredit muassasalari faoliyatidagi portfel riski darajasi oshib ketadi. Bunga yorqin misol qilib, 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini keltirish mumkin. Ushbu inqiroz O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov e'tirof etganlaridek, "Amerka Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglikdan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi"<sup>31</sup>.

## 6.2. Portfel riskini baholash usullari

Tijorat banklari faoliyatidagi portfel riskini baholash 3 bosqichdan iborat:

- alohida olingan qimmatli qog'ozning risk darajasini baholash;

<sup>31</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009. 4 b.

- ularning bir-biriga ta'sir darajasini baholash;
- qimmatli qog'ozlar portfelining umumiy risk darajasini baholash.

Portfel riskini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. Qimmatli qog'ozlar portfelidan olinadigan to'liq daromad darajasi.

Mazkur to'liq daromad joriy daromad summasi va kapitalning o'sgan miqdoridan iborat.

Ammo ushbu ko'rsatkich miqdoriy ko'rsatkich bo'lib, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning samaradorligini baholash imkonini bermaydi.

2. Qimmatli qog'ozlarning ma'lum davrdagi daromadlilik darajasi.

Mazkur ko'rsatkich ma'lum davrda qimmatli qog'ozlardan olingan to'liq daromad summasini qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning boshlang'ich qiymatiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Ta'kidlash joizki, qimmatli qog'ozlar portfelining kutilayotgan daromadlilik uni tashkil qiluvchilarning chiziqli shakli hisoblanadi, portfel riskining darajasi esa, uning komponentlarining kvadratik shakli hisoblanadi.

Ma'lum davrlarda qimmatli qog'ozlar emitentining moliyaviy holatini yomonlashishi ushbu qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning daromadlilikiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida ipoteka qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning real daromadlilik darajasi nolga teng bo'ldi. Ya'ni, ipoteka qimmatli qog'ozlariga emitentlar foiz to'lay olmay qolishdi.

3. Qimmatli qog'ozlar portfelining diversifikatsiya darajasi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida qimmatli qog'ozlar portfelining diversifikatsiya qilishda qimmatli qog'ozlarning emitenti bo'yicha diversifikatsiyalash keng qo'llaniladi. Bir qator yirik transmilily banklarda yetti foizli mezon qo'llaniladi. Ya'ni, tijorat bankining qimmatli qog'ozlar portfelida bir emitentning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning salmog'i yetti foizdan oshib ketmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfelining diversifikatsiya darajasiga nisbatan Markaziy bank tomonidan quyidagi talablar qo'yilgan:

– tijorat bankining bir emitentning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarining jami summasi uning birinchi darajali kapitalining o'n besh foizidan oshib ketmasligi kerak;

– tijorat bankining oldi-sotdi maqsadlaridagi qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarining jami summasi uning birinchi darajali kapitalining yigirma besh foizidan oshib ketmasligi lozim;

– tijorat banklarining barcha emitentlarning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarining jami summasi uning birinchi darajali kapitalining 50 foizidan oshib ketmasligi zarur.

4. Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasining o'zgarishi.

### **6.3. Portfel riskini boshqarish usullari**

Tijorat banklari faoliyatidagi portfelli riskni boshqarishning muhim nazariy asosi bo'lib, qimmatli qog'ozlar portfeli nazariyasi hisoblanadi. Mazkur nazariyaning qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish bo'yicha asosiy qoidalar quyidagilardan iborat:

– aktivlar qanchalik ko'p riskka duchor bo'lgan bo'lsa, ulardan kelgusida olinadigan daromad darajasi shunchalik yuqori bo'ladi;

– risk va daromadlilik o'rtasidagi nisbatning maqbul darajasini qabul qilgan qimmatli qog'oz investori o'zi uchun zarur bo'lgan likvidlilik darajasini belgilaydi;

– portfel riskining darajasi vaqtga bog'liq. Aniq olingan qimmatli qog'ozni qoplash muddati qanchalik yaqin bo'lsa, uning riskka ta'sirchanligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Portfeli riskini boshqarishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarning natijalari ko'rsatadiki, tijorat banklarining korporativ qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalari yuqori riskli bo'lib, qimmatli qog'ozlar portfelini diversifikatsiya holatida bo'lishini doimo nazorat qilib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Tijorat banklari faoliyatidagi portfel riskini boshqarishda quyidagi usullardan keng foydalaniladi:

1. Qimmatli qog'ozlardan olinadigan to'liq daromad miqdori va darajasining barqarorligini ta'minlash.

Buning uchun tijorat banklari quyidagi tadbirlarni amalga oshiradilar:

- sotib olinishi ko‘zda tutilayotgan qimmatli qog‘ozlar emitentlarining likvidligi va moliyaviy barqarorligini chuqur tahlil qilish;
- qimmatli qog‘ozlar portfelinig diversifikatsiyalash prinsiplarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasining oshishiga yo‘l qo‘ymaslik.

2. Inflatsion riskning qimmatli qog‘ozlarning likvidligi va daromadlilikiga ta‘sirini pasaytirish.

Inflatsiya ta‘sirida qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar va ulardan olinadigan daromadlarning real qiymati pasayishi mumkin. Shu sababli, taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida shunday qoida mavjudki, qimmatli qog‘ozning foiz stavkasi yoki oddiy aksiyalardan olinadigan dividend darajasi inflatsiya ta‘sirida yuzaga kelgan real qiymatning pasayishini qoplash imkonini berishi kerak.

Inflatsiya darajasi va milliy valutaning devalvatsiya sur‘ati yuqori bo‘lgan mamlakatlarda qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning real qiymatini pasayish darajasi yuqori bo‘lib, ularga to‘lanayotgan daromad darajasi real qiymatning pasaygan qismini qoplab berish imkonini bermaydi. Natijada, mazkur mamlakatlarda milliy valutada emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlarning investitsion jozibadorligini ta‘minlash imkoni bo‘lmaydi.

3. Portfel riskini kredit derivativlari vositasida xedjirlash.

Kredit derivativlari hosilaviy instrumentlar bo‘lib, portfel riski darajasini pasaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

#### 6.1-jadval

**Bazel-II standarti bo‘yicha tijorat banklarining savdo portfelidagi risklarni xedjirlash uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha omillar hisob-kitobi<sup>32</sup>**

|                                    | Himoyani sotib oluvchi | Himoyani sotuvchi |
|------------------------------------|------------------------|-------------------|
| <b>To‘liq qaytariladigan svop:</b> |                        |                   |
| a) maqbul referent majburiyat      | 5 %                    | 5 %               |
| b) nomaqbul referent majburiyat    | 10 %                   | 10 %              |
| <b>Kreditli defolt svopi:</b>      |                        |                   |
| a) maqbul referent majburiyat      | 5 %                    | 5 %               |
| b) nomaqbul referent majburiyat    | 10 %                   | 10 %              |

<sup>32</sup> Международная конвергенция измерения капитала и стандартов капитала: Уточнение рамочных подходов. Пер. с англ. Базел: Банк международных расчетов, 2004. С. 172. [www.bis.org](http://www.bis.org).

6.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kredit derivativlari yordamida banklarning savdo portfelidagi risklarni xedjirlashda ikkita qo'shimcha omildan, ya'ni svoplarning ikki turidan foydalanish tavsiya qilingan.

4. Tijorat bankining kapitali hisobidan portfelli risk bo'yicha alohida ajratmalar qilish usuli.

Bazel qo'mitasi tomonidan tijorat banklarining savdo portfelidagi risklarni kapital hisobidan ta'minlash bo'yicha standartlashgan metodologiya taklif qilingan. Ushbu metodologiyaga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bo'yicha yuzaga keladigan risklarni qoplash uchun kapital hisobidan maxsus chegirmalar qilish ko'zda tutilgan (6.2-jadval).

#### 6.2-jadval

**Bazel-II standarti bo'yicha davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha risklarni qoplash maqsadida kapital hisobidan qilinadigan maxsus ajratmalar darajasi<sup>33</sup>**

| Emitentning tashqi kredit reytingi | Kapitaldan maxsus ajratmalar darajasi, % |
|------------------------------------|------------------------------------------|
| AAA – AA -                         | 0,00                                     |
| A + ... VVV -                      | 0,25                                     |
| VV + .... V -                      | 1,00                                     |
| V – dan past                       | 1,60                                     |
| Qolgan barchasi uchun              | 8,00                                     |

6.2-jadvaldan ko'rinadiki, davlat qimmatli qog'ozlarning emitenti bo'lgan hukumatning tashqi kredit reytingi qanchalik yuqori bo'lsa, unga qilingan investitsiyalarning risk darajasi shunchalik past bo'ladi. Natijada, kapital hisobidan riskni qoplash maqsadidagi qilinadigan maxsus ajratmalarining stavkasi emitentning tashqi kredit reytingining pasayishiga bog'liq ravishda oshib boradi.

#### Tayanch so'z va iboralar

Dividend, devalvatsiya, derivativ, inqiroz, investitsiyalar, likvidli qimmatli qog'ozlar, portfel riski, reyting, tijorat banklari, milliy valuta, inflatsiya, emitent.

<sup>33</sup> Международная конвергенция измерения капитала и стандартов капитала: Уточнение рамочных подходов. Пер. с англ. Базель: Банк международных расчетов, 2004. С. 173. [www.bis.org](http://www.bis.org)

## **Nazorat uchun savollar**

1. Portfel riski deganda nimani tushunasiz?
2. Portfel riskini yuzaga keltiruvchi qanday omillar mavjud?
3. Portfel riskini baholashning qanday usullarini bilasiz?
4. Portfel riskini boshqarishning qanday usullari mavjud?
5. Bazel qo'mitasining portfel riskini baholash va boshqarish bo'yicha qanday talablari mavjud?
6. Kredit derivativlari nima?
7. Qanday qilib kredit derivativlaridan foydalangan holda portfel riskini xedjirlash mumkin?

## **VII bob. TIJORAT BANKLARINING XALQARO OPERATSIYALARI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN RISKLAR**

### **7.1. Banklarning xalqaro operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan risklarning turlari va yuzaga kelish sabablari**

Banklarning xalqaro operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan risklariga valuta riski va hisob-kitob riski kiradi.

Valuta riski – bu valutilarning almashuv kurslarini tebranishi natijasida zarar ko‘rish xavfidir. Valuta operatsiyalari tijorat banklari operatsiyalarining asosiy turlaridan biri bo‘lganligi sababli, valuta riskini boshqarishni takomillashgan tizimini shakllantirish banklar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi.

Hisob-kitob riski – bu banklarda likvidlilik muammosining yuzaga kelishi natijasida xorijiy valutadagi to‘lovlarni amalga oshirishni kechikishidir.

Xorijiy vakil bankda likvidlilik muammosining yuzaga kelishi to‘lovlarni o‘tkazish vaqtini kechikishiga sabab bo‘ladi. Buning natijasida xorijlik mol yetkazib beruvchining moliyaviy holatiga nisbatan ma‘lum darajadagi salbiy ta‘sir yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, xorijiy valutadagi to‘lovni amalga oshiruvchi vakil bankning reputatsiyasiga ham putur etadi. Chunki, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning reputatsiyasini belgilovchi asosiy omil bo‘lib, ularning o‘z majburiyatlari yuzasidan to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishi hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlar tomonidan to‘lovni 3 kun kechiktirilishi ularni defolt deb hisoblash uchun asos bo‘ladi.

Banklarning xalqaro operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan risklarning yuzaga kelishi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalarining mutlaq asosiy qismi xalqaro rezerv valuta maqomiga ega bo‘lgan valutilarda (Xitoy yuanidan tashqari) amalga oshiriladi. Ushbu valutilarning barchasi erkin suzish rejimiga ega.

Erkin suzish rejimiga ega bo'lgan valutilarning kursi valuta bozorida, talab va taklif asosda erkin shakllanadi. Shu sababli, ularning kursi katta diapazonlarda tebranishi mumkin. Bunday sharoitda, o'sha mamlakatning Markaziy banki milliy valuta kursining tebranishi uchun javob bermaydi.

2. Tijorat banklarining spot operatsiyalarida sug'urta elementlarini qo'llab bo'lmasligi.

Tijorat banklari valuta operatsiyalarining asosiy qismini spot operatsiyalari tashkil etadi. Spot operatsiyalari tijorat banklari valuta operatsiyalarining umumiy hajmida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi.

Spot operatsiyalarini amalga oshirish vaqti juda qisqa bo'lganligi sababli (2 bank ish kuni) ularni sug'urta qilib bo'lmaydi. Bu esa, spot operatsiyalarining risk darajasini yuqori bo'lishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

3. Spekulativ kapitallar oqimining mavjudligi.

Xalqaro miqyosda spekulativ kapitallar oqimining mavjudligi jahon valuta bozorlaridagi talab va taklif muvozanatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, tijorat banklari faoliyatidagi valuta riski darajasining oshishiga sabab bo'lmoqda.

4. Tijorat banklarida likvidlilik muammosining chuqurlashishi.

Ayniqsa, moliyaviy inqirozlar yuz berganda tijorat banklarida likvidlilik muammosi chuqurlashadi. Natijada, xalqaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish qiyinlashadi. Bunga aniq misol qilib, 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini keltirish mumkin.

Mazkur inqiroz ta'sirida berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytmaligi va sotib olingan qimmatli qog'ozlarning bozor baholarini keskin pasayib ketishi natijasida ko'plab banklarda likvidlilik muammosi chuqurlashdi.

## **7.2. Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan risklarni baholash va boshqarish usullari**

Xalqaro bank amaliyotida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining bank amaliyotida valuta riski darajasini baholashda tijorat bankining ochiq valuta pozitsiyalarining darajasiga baho berish

usulidan keng foydalaniladi. Bunda tijorat bankining uning aylanmasida bo'lgan har bir xorijiy valutadagi ochiq valuta pozitsiyasining miqdori bilan barcha xorijiy valutilardagi yakuniy ochiq valuta pozitsiyasi miqdorining haqiqatdagi darajasi aniqlanadi. Undan keyin aniqlangan miqdorlar Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ochiq valuta pozitsiyalariga nisbatan belgilangan me'yoriy darajalar bilan solishtiriladi. Agar tijorat bankining ochiq valuta pozitsiyalari miqdori ular bo'yicha o'rnatilgan me'yoriy talablar darajasidan oshmagan bo'lsa, u holda, bankda valuta riskining darajasi mo'tadil deb, hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ochiq valuta pozitsiyalariga nisbatan 2005-yilning 31-avgustidan boshlab quyidagi me'yoriy chegaralar belgilangan:

1. Tijorat bankining bitta valutadagi ochiq valuta pozitsiyasi miqdori bank regulativ kapitalining 10 foizidan oshib ketmasligi lozim.

2. Tijorat bankining barcha valutilardagi yakuniy ochiq valuta pozitsiyasining miqdori bank regulativ kapitalining yigirma foizidan oshib ketmasligi lozim<sup>34</sup>.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi banklarining ochiq valuta pozitsiyalarini baholashda faqat spot operatsiyalari va muddatli valuta operatsiyalari hisobga olinadi. Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida esa, tijorat banklarining ochiq valuta pozitsiyasini aniqlashda spot va forvard operatsiyalaridan tashqari, banklarning xorijiy valutilardagi depozit-ssuda operatsiyalari va qimmatli qog'ozlarni sotib olish-sotish operatsiyalari ham hisobga olinadi. Buning sababi shundaki, tijorat banklari xorijiy valutilarda depozitlar qabul qilganda, ularning balansida xorijiy valutilar kirimi ko'payadi. Bu esa, ularning uzun valuta pozitsiyasi miqdorining oshishiga olib keladi. Buning ustiga, tijorat banklari kredit berganda, bankning balansida xorijiy valutilar chiqimi miqdori oshadi va natijada uning qisqa valuta pozitsiyasi miqdori oshishi kerak. Shuningdek, tijorat banki tomonidan xorijiy valutada emissiya qilingan qimmatli qog'ozning sotib olinishi uning ushbu valutadagi qisqa valuta

---

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari kapitalini shakllantirish bo'yicha Xalqaro Bazel standarti qabul qilingan. Ushbu standartga ko'ra, tijorat banklarining regulativ kapitali ikki qismdan iborat: birinchi darajali kapital; ikkinchi darajali kapital.

pozitsiyasi miqdorining oshishiga olib kelsa, xorijiy valutada emissiya qilingan qimmatli qog'ozni sotilishi uning mazkur valutadagi uzun valuta pozitsiyasi miqdorining oshishiga olib keladi.

Valuta riskini boshqarishda tijorat banklarining valuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiy adabiyotda valuta zaxiralarini diversifikatsiya qilishning ikki usulining mavjudligi e'tirof etiladi. Birinchi usulga ko'ra, valuta zaxiralari bir vaqtning o'zida bir nechta valutalarda zaxira qilish yo'li bilan diversifikatsiya qilinadi. Ikkinchi usulda esa, valuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish uchun valuta zaxiralarining tarkibi doimiy ravishda yangilanib boradi. Ya'ni, valuta zaxiralari tarkibidagi kursi beqaror bo'lgan valuta sotib yuboriladi va uning o'rniga kursi barqaror bo'lgan valuta sotib olinadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari va ular mijozlarining valuta zaxiralarini diversifikatsiya darajasi past. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi davrda mamlakatda eksport-import operatsiyalarining to'qson besh foizga yaqin qismi birgina AQSh dollarida amalga oshirilmoqda<sup>35</sup>.

Ayni vaqtda, xalqaro zaxiralar hajmida AQSh dollarida shakllantirilgan zaxiralarning salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Fikrimizcha, buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: birinchidan, AQSh dollarining boshqa yetakchi valutalariga nisbatan nominal almashuv kursining tebranish diapazoni katta emas; ikkinchidan, AQSh dollarida emissiya qilingan AQSh hukumatining va Federal fondlarining qimmatli qog'ozlari yuqori likvidli va ishonchli investitsiyalash obyektlari hisoblanadi; uchinchidan, hozirga qadar dunyoning ko'plab mamlakatlarida, shu jumladan, MDH davlatlarida valuta intervensiyasi vositasi bo'lib AQSh dollari hisoblanadi; to'rtinchidan, ko'plab mamlakatlar hukumatlari tashqi qarzining asosiy qismi AQSh dollarida shakllangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati asosida mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan xalqaro kreditlarning umumiy hajmida AQSh dollarida jalb etilgan kreditlarning salmog'i (71,4) foizni tashkil etadi<sup>36</sup>. Shunisi

<sup>35</sup> 2013-yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2014-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari / Bozor, pul va kredit. T., 2014. №1. 19 b.

<sup>36</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

xarakterliki, dunyoning ko'plab mamlakatlarida xorijiy valutadagi zaxiralarning tarkibini tashqi qarzning tarkibiga mos ravishda shakllantirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Chunonchi, Braziliyada xalqaro zaxiralar uchta valutada – AQSh dollari, yevro va Yaponiya iyyenasida shakllantirilgan. Chunki mamlakatning tashqi qarzi mazkur uch valutadagi qarzdan iborat. Janubiy Koreyada xalqaro zaxiralarning investitsion tarkibi tashqi qarzning valutaviy tarkibiga va joriy valuta operatsiyalari bo'yicha to'lovlarni qaysi valutilarda amalga oshirilayotganligiga mos ravishda shakllantirilmoqda. Chexiyada esa rasmiy valuta zaxiralari AQSh dollari va yevroda shakllantirilgan. Uni shakllantirishda e'tiborga olinadigan asosiy omillardan biri tashqi qarzning valutaviy tarkibi hisoblanadi<sup>37</sup>.

Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan risklarning chuqurlashishida xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyoti ham ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklarining orderli cheklari bilan amalga oshiriladigan xalqaro hisob-kitob operatsiyalarida bank chekni mijozning yozma ko'rsatmasiga asosan yozadi. Ammo bank tomonidan chek summasi alohida balans hisobvarag'ida deponentlanmaydi. Demak, bunda bank uchun to'lov riski mavjud emas. Lekin, xalqaro amaliyot tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, orderli cheklarning asosiy qismi, importyorlarning joriy valuta mablag'lari yetmay qolgan sharoitda, tijorat banklarining kreditlari hisobidan to'lanmoqda. Demak, orderli cheklar tijorat banklari uchun to'lov riskini yuzaga keltirmasada, ular uchun yuqori daromad olish manbayi bo'lib qolmoqda.

Rivojlangan davlatlarning xo'jalik amaliyotida ochiq hisob varaqlari bo'yicha hisoblashishdan keng ko'lamda foydalaniladi. Bunda, odatda, eksportyorning bankida mazkur tashqi savdo shartnomasini moliyalashtirish uchun alohida balans hisobvarag'i ochiladi. Tashqi savdo shartnomasida har bir partiya tovarni jo'natish vaqti aniq ko'rsatiladi. Importyor har bir partiya tovarning summasini tovar jo'natilgunga qadar eksportyorning bankida ochilgan balans hisobvarag'iga o'tkazishi lozim. Eksportyor tovarni jo'natgandan so'ng, uning banki to'lov summasini eksportyorning joriy valuta hisobvarag'iga o'tkazadi.

<sup>37</sup> Фаненко М. Международная ликвидность и диверсификация официальных резервных активов // Мировая экономика и международные отношения. М., 2007. №6. С.56.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda xalqaro hisob-kitoblarning ta'minlangan akkreditiv shaklidan keng foydalaniladi. Buning sababi shundaki, ushbu davlatlar xalqaro Bazeli qo'mitasining ekspertlari va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori riskli zona sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli, ushbu mamlakatlar bilan bo'ladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ular to'lovlar kafolatlangan va to'lov kafolatini ta'minlash imkoniyati yuqori bo'lgan xalqaro hisob-kitob shakllarini qo'llaydilar. Hujjatli akkreditiv xalqaro hisob-kitoblarning ana shunday xususiyatlarga ega bo'lgan shakli hisoblanadi.

Hujjatlashtirilgan akkreditivlarning ta'minlanganlik shaklida to'lov summasi alohida hisobraqamda deponent qilinadi yoki oldindan eksportyorning bankiga yetkazib beriladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida esa, hujjatli akkreditivlarning ta'minlanganlik shaklidan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Bunda akkreditiv so'mmasi alohida balans hisobraqamida deponent qilinmaydi, to'lov uchun kafillikni esa, importyorning banki o'z zimmasiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining rivojlangan xorijiy davlatlarning tijorat banklari bilan bir tomonlama tashqi vakillik munosabatlariga ega ekanligi xalqaro operatsiyalardagi risklarning darajasini oshishiga xizmat qiladi. Muammoning mohiyati shundaki, respublikamizning yirik tijorat banklari rivojlangan xorijiy davlatlarning tijorat banklarida o'zlarining «Hocropo» vakillik hisobvarag'iga ega. Rivojlangan xorijiy davlatlarning tijorat banklari esa, respublikamizning tijorat banklarida o'zlarining «Hocropo» vakillik hisobvarag'iga ega emaslar.

To'lov topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarda import summasi tovar qabul qilib olingandan so'ng amalga oshiriladi. Bunda importyor birinchi navbatda tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni oladi. Undan keyin esa, tovarlar bilan bog'liq hujjatlar orqali tovarlarni portdan yoki omborxonadan oladi. Importyor tovarni sifatini haqiqatda tekshirgandan keyin to'lov topshiriqnomasi yozadi. Demak, tijorat banki uchun mazkur hisob-kitob shaklida to'lov riski mavjud emas. Bundan tashqari, ushbu to'lov shakli importyor uchun qulay bo'lib, eksportyorga to'lov riskini yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda to'lov riski muammosining chuqurlashishi debitor qarzdorlik summasing oshishiga va mamlakat eksport tushumini kamayishiga olib ke-

lishi mumkin. Bu holat esa, o'z navbatida, milliy valutaning almashuv kursiga va eksportyorlarning to'lovga qobilligiga salbiy ta'sir qiladi.

Tovar valutasini belgilashda tovarning turi va narx belgilash usuli katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, hukumatlararo kelishuv va xalqaro udumlar ham e'tiborga olinadi. Ba'zida tovar narxi ikki yoki undan ortiq valutada hamda xalqaro pul birliklarida ifodalanishi mumkin.

To'lov valutasini import qiluvchi yoki qarzdor o'z majburiyatlarini qaysi valutada qoplashni ifoda etadi.

Valuta kurslari beqaror bo'lgan paytlarda narxlar eng barqaror valutada aniqlanib, to'lov esa import qiluvchining valutasida o'rnatiladi. Agar narx valutasini to'lov valutasidan farq qilsa, u holda bitimda birini ikkinchisiga o'tkazish qayta hisoblash kursi yordamida amalga oshiriladi. Mazkur ikki valutaning bir-biriga muvofiq kelmasligi valuta kursini sug'urtalashning eng sodda usuli hisoblanadi. Agar narx valutasining kursi (masalan, dollar) pasayib ketsa, to'lov valutasini (o'zbek so'mi) summasi o'z-o'zidan mos ravishda kamayadi va aksincha. Narx valutasini kursining pasayish riski eksport qiluvchi zimmasida bo'lsa, uning ko'tarilish riski import qiluvchida bo'ladi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Valuta riski, vakil bank, valutaning almashuv kursi, defolt, likvidlik muammosi, ochiq valuta pozitsiyasi, ochiq hisobraqamlar, to'lov topshiriqnomasi, cheklar, erkin suzish rejimi, xalqaro operatsiyalar, hujjatlashtirilgan akkreditivlar, hisob-kitob riski.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalarida qanday risklar yuzaga keladi.
2. Valuta riskini baholashning qaysi usullari sizga ma'lum?
3. Valuta riskini boshqarishning qanday usullari mavjud?
4. Hisob-kitob riskini baholashning qanday usullari mavjud?
5. Hisob-kitob riskini boshqarishning qanday usullari bor?
6. Banklar ochiq valuta pozitsiyasining qanday turlari mavjud?
7. Ochiq valuta pozitsiyalarini tartibga solishning qaysi usullarini bilasiz?

## VIII bob. TIJORAT BANKLARIDA LIKVIDLILIK RISKI

### 8.1. "Likvidlilik riski" tushunchasi

Likvidlilik riski ikki xil holatda namoyon bo'ladi:

1. Bankning vakillik hisobraqamlarida ortiqcha pul mablag'larining to'planib qolishi.

2. Bankning vakillik hisobraqamlarida pul mablag'larining yetmay qolishi.

Likvidlilikning ikkinchi ko'rinishi balanslashmagan likvidlilik deyiladi.

Tijorat banklarining "Hoctpo" vakillik hisobraqamlarida ortiqcha pul mablag'larining to'planib qolishi ma'lum bir davrda bank uchun qulay va ishonchli investitsiyalash obyektlarining mavjud bo'lmay qolishi natijasida yuz berishi mumkin. Ushbu holat tijorat banklari aktivlarining daromadlilikini oshirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, tijorat banklarining "Hoctpo" vakillik hisobraqamlarining qoldig'iga, odatda, Markaziy bank ham, boshqa tijorat banklari ham foiz to'lashmaydi.

Tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilikning paydo bo'lishi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- bank tomonidan berilgan kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytmasligi;

- tijorat banki passivlarining barqarorligini ta'minlanmaganligi (masalan, tijorat banki depozitlarining umumiy hajmida talab qilib olinadigan depozitlar salmog'ini yuqori bo'lishi bankning likvidlilikiga salbiy ta'sir ko'rsatadi);

- bank aktivlar portfelini diversifikatsiya darajasining pasayishi;

- tijorat bankida transformatsiya riskining paydo bo'lishi.

Tijorat banki aktivlari muddatining jalb qilingan resurslar muddatidan katta bo'lishi natijasida transformatsiya riski yuzaga keladi. Transformatsiya riskini qisqa fursatlarda bartaraf qilinmasligi tijorat bankining likvidlilikini izdan chiqishiga olib keladi.

- iqtisodiy konyunkturaning yomonlashishi;

- mamlakatda siyosiy vaziyatning yomonlashishi;

- iqtisodiy, moliyaviy inqirozlarning yuz berishi.

Mamlakatda siyosiy vaziyatning yomonlashishi xorijiy davlatlarga chiqib ketayotgan kapitallash oqimining kuchayishiga olib keladi. Buning natijasida tijorat banklarida xorijiy valutatdagi depozitlar va omonatlar miqdori kamayib, uning likvidliligiga nisbatan kuchli salbiy ta'sir yuzaga keladi.

Iqtisodiy, moliyaviy inqirozlar tijorat banklarining likvidliligiga kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Bunga 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida guvoh bo'ldik.

U.A.Abdullayevning tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siri tufayli tijorat banklarining likvidlilik darajasini keskin pasayganligi natijasida AQSh FZT, Yevropa Markaziy banki (EMB), Yaponiya va Angliya Markaziy banklari tomonidan markazlashgan kreditlar hajmini oshirish zaruriyati yuzaga keldi. Xususan, EMB korporativ aksiyalar va ipoteka obligatsiyalarini garov obyekti sifatida tan olib, 2008-yilda sakkiz mingta bankka lombard kreditlari olish imkonini berdi<sup>38</sup>.

Angliya Markaziy banki jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining boshlang'ich fazasida qayta moliyalash kreditlari hajmini oshirish yo'lini tutmadi. Ammo Angliya banki bunga qadar hukumatning qimmatli qog'ozlari hamda kompaniyalar va banklarning obligatsiyalari hamda ipoteka obligatsiyalarini garovga olish yo'li bilan tijorat banklariga qayta moliyalash kreditlari berish amaliyotiga ega edi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida ta'kidlaganidek, "...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi"<sup>39</sup>.

## **8.2. Tijorat banklari likvidlilik riskini baholash va boshqarish usullari**

Likvidlilik riskini baholashda bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ulardan xalqaro bank amaliyotida keng qo'llanilayotganlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

<sup>38</sup> European Central Bank Report 2007. –Fr/M., 2008 ma'lumotlari.

<sup>39</sup> Islom Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – B.11.

# 1. Joriy likvidlilik koeffitsiyenti.

Tijorat banklarining joriy likvidliliği taraqqiy etgan mamlakatlarda quyidagicha aniqlanadi:

AQSh da:

$$\frac{\text{Birlamchi xaziralar}}{\text{Depozitlar} - \text{jami}} \times 100\%.$$

Ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasi: kamida 5-10%

Yaponiyada:

$$\frac{\text{Birlamchi xaziralar} + \text{ikkilamchi xaziralar}}{\text{Depozitlar} - \text{jami}} \times 100\%.$$

Ushbu ko'rsatkichning minimal darajasi 30 % bo'lishi kerak.

Fransiyada:

$$\frac{\text{Likvidli aktivlar} + \text{yaqin o'ttiz kun ichida qaytariladigan aktivlar}}{\text{Talab qilib olinadigan majburiyatlar} + \text{yaqin o'ttiz kun ichida qoplanadigan majburiyatlar}}$$

Ushbu ko'rsatkichning minimal me'yoriy darajasi: yuz foiz

Likvidlilik riskini boshqarishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining likvidliliğiga nisbatan iqtisodiy me'yorlar o'rnatish;
- bankning vakillik hisobraqamidagi ortiqcha pullarni turli emitentlar tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirish;
- jalb qilingan mablag'larning muddatlari bilan aktivlarning muddatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash;
- bank aktivlarining sifatini yaxshilash;
- yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilinadigan investitsiyalar hajmini oshirish.

Tijorat banklarida likvidlilik riskini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri – bu tijorat banklari joriy likvidlilik darajasi va umumiy kapitali yetarlilik darajasining o'zgarishidir (8.1-jadval).


8.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, respublikamiz tijorat banklarining joriy likvidliliği talab darajasida bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan me'yoriy talabga nisbatan ikki marotabadan ziyod yuqoridir. Bu esa, milliy bank tizimining likvidliliğini ta'minlash nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

**O'zbekiston banklarining joriy likvidligi va kapitalining yetarliligi<sup>40</sup>, foizda**

| Ko'rsatkichlar                                   | Yillar |      |      |      |      |
|--------------------------------------------------|--------|------|------|------|------|
|                                                  | 2011   | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 |
| Tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasi  | 65,0   | 65,0 | 65,5 | 64,6 | 64,5 |
| Tijorat banklari umumiy kapitalining yetarliligi | 24,2   | 24,0 | 24,3 | 23,8 | 23,6 |

8.1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz tijorat banklari umumiy kapitalining yetarliligi Bazal-1 standarti talablaridan qariyb 3 barobar yuqoridir. Bu esa, tijorat banklarida likvidlilik riskini boshqarish samaradorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Quyidagi rasmlar ma'lumotlari orqali respublikamizning yirik tijorat banklari misolida tijorat banklarining pul shaklidagi yuqori likvidli aktivlari salmog'i va yuqori riskli aktivlar miqdorlarining o'zgarishini ko'rib chiqamiz (8.1-rasm).




**8.1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki aktivlarining umumiy hajmida pul shaklidagi yuqori likvidli aktivlar salmog'ining o'zgarishi,<sup>41</sup> foizda**

<sup>40</sup>O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

8.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2011–2015-yillarda TIF Milliy banki aktivlarining umumiy hajmida pul shaklidagi eng yuqori likvidli aktivlarning salmog'i yuqori bo'lgan. Bu esa, likvidlilik riskini boshqarish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Ammo mazkur holat bank aktivlarining daromadlilikini ta'minlash nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, 20 % darajadagi ko'rsatkich juda yuqori darajasidagi ko'rsatkich hisoblanadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning tijorat banklarida pul shaklidagi yuqori likvidli aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i o'rtacha 5–6 % darajasida bo'ladi. 2015-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra ushbu ko'rsatkich Buyuk Britaniyaning "Barclays" bankida 3,5 foizni tashkil etdi.<sup>42</sup>



8.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida yuqori riskli aktivlar miqdori,<sup>43</sup> mlrd so'm

8.2-rasmdan ko'rinadiki, TIF Milliy bankining yuqori riskli aktivlari 2011–2015-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bunday sharoitda aktivlarning sifatini yomonlashishiga yo'l qo'ymaslik

<sup>41</sup> TIF Milliy bankining moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

<sup>42</sup> Barclays PLS. Annual Report 2014. barclays.com sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

<sup>43</sup> TIF Milliy bankining moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

likvidlilik riski darajasini oshishiga yo‘l qo‘ymaslikning muhim sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan) “Tijorat banklarining likvidlilikini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi hamda Markaziy bankning 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyuldagi 2693-sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan) “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnomalarining qabul qilinganligi banklar faoliyatidagi likvidlilik riskini boshqarish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Buning sababi shundaki, mazkur Nizomda banklar likvidlilikini qo‘yiladigan talablarni kuchaytirishga xizmat qiladigan yangi qoidalar o‘z aksini topgan.

“Tijorat banklarining likvidlilikini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizomda likvidli aktivlar tarkibi o‘zgartirildi va bundan buyon likvidli aktivlar sifatida quyidagi aktivlar hisobga olinadi:

- sof quyma oltin;
- bankning Markaziy bankdagi “Нотро” vakillik hisobraqamidagi pul mablag‘lari (10301);
- yetti kungacha muddatdagi banklararo kreditlar va depozitlar;
- “Standart & Poor’s”, “Fitch Ratings” va “Moody’s” xalqaro reyting agentliklarining eng yuqori baholari berilgan, rivojlangan fond birjalari ro‘yxatiga kiritilgan, risk darajasi past bo‘lgan mamlakatlarning transmilliy kompaniyalarining qimmatli qog‘ozlari;
- bankning boshqa banklarda ochilgan “Нотро” vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag‘lari (10501);
- risk darajasi past bo‘lgan mamlakatlardagi banklarga joylashtirilib, ta‘minot sifatida qo‘yilmagan likvidli aktivlar.


Pul shaklidagi yuqori likvidli aktivlar tijorat banklariga daromad keltirmaydi. Shu sababli, ularning yuqori salmoqqa ega bo‘lishi tijorat bankining moliyaviy barqarorligiga nisbatan salbiy ta‘sirni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, tijorat banklari aktivlarining hajmida yuqori likvidli aktivlarning juda kichik salmoqqa ega bo‘lishi ham uning likvidlilikiga nisbatan salbiy ta‘sirni yuzaga keltirishi mumkin. Chunki, bunday

holatda yirik miqdordagi to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu sababli, yuqori likvidli aktivlarning bank brutto aktivlari hajmidagi salmog'ining optimal darajasini ta'minlash tijorat bankining likvidliligini ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda taraqqiy etgan mamlakatlar banklarida ham pul shaklidagi yuqori likvidli aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining oshib borishi kuzatilmoqda. Bu esa, mazkur mamlakatlarda tijorat banklarining bo'sh pul mablag'larini Markaziy bankning muddatli depozit hisobraqamlariga joylashtirishga bo'lgan qiziqishi kuchayayotganligi bilan izohlanadi. Shunday holatni Yaponiya va Xitoyda yaqqol kuzatish mumkin. Masalan, Yaponiya-ning yirik tijorat banklaridan biri bo'lgan Yokogama bankida pul shaklidagi aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i, 2016-yilning 31-mart holatiga, 13,7 foizni tashkil etdi.<sup>44</sup>

Quyidagi rasmlarning ma'lumotlari orqali tadqiqotning yana bir obyekti bo'lgan O'zSanoatqurilishbankining likvidli va yuqori riskli aktivlariga baho beramiz.



8.3-rasm. O'zbekiston Respublikasi AT "Sanoatqurilishbank"i aktivlarining umumiy hajmida pul shaklidagi yuqori likvidli aktivlar salmog'ining o'zgarishi,<sup>45</sup> foizda


<sup>44</sup> Bank of Yokohama. Annual Report. Year Ended March 31, 2016.

<sup>45</sup> O'zSanoatqurilishbankining moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

8.3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zSanoaqurilishbankida 2011–2015-yillarda pul shaklidagi eng yuqori likvidli aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining yuqori darajada bo'lganligi kuzatilgan. Bu esa, likvidlilik riskini boshqarish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Ammo mazkur holat bank aktivlarining daromadlilikini ta'minlash nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, yigirma sakkiz foizdan yuqori darajadagi ko'rsatkich juda yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Quyida biz O'zSanoaqurilishbankining yuqori riskli aktivlari miqdorining o'zgarishini tahlil qilamiz.

8.4-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2011–2015-yillarda O'zSanoatqurilishbankida yuqori riskli aktivlarning o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Buning ustiga, 2013–2015-yillarda yuqori riskli aktivlarning o'sish sur'atlari nisbatan yuqori bo'lgan. Bunday sharoitda aktivlarning sifati ustidan tahlil va nazoratni kuchaytirish yo'li bilangina likvidlilik riski chuqurlashishining oldini olish mumkin.



8.4-rasm. O'zbekiston Respublikasi AT "Sanoatqurilishbank"ida yuqori riskli aktivlar miqdori,<sup>46</sup> mlrd so'm

<sup>46</sup> O'zSanoatqurilishbankining moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Sanoatqurilishbankida yuqori riskli aktivlar miqdorining o'sish tendensiyasiga ega ekanligi kelgusida kapitalning yetarliligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirishi mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari faoliyatidagi likvidlilik riskini boshqarishda quyidagi usullardan foydalanilmoqda:

1. Tijorat bankining aktivlari va passivlarining optimal tarkibini shakllantirish hisoblanadi.

Bu asosiy (birlamchi) usul hisoblanadi.

2. Aktivlar va jalb qilingan resurslarning muddatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash usuli.

3. Aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish usuli.

4. Likvidlilik riski bo'yicha qabul qilingan talablarga rioya qilish.

Tijorat banklari aktivlari va passivlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash likvidlilik riskini boshqarishda muhim o'rin tutadi. Ushbu vazifani bajarish uchun tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarishning mavjud uch usulidan kompleks foydalanish lozim.

Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boqsharishning "Mablag'larning umumiy fondi usuli yoki aktivlarni taqsimlash" usulida aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishda mablag'larning manbalari hech qanday ahamiyatga ega emas. Ushbu usulda tijorat bankining likvidlilik aktivlarning tarkibini tartibga solish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarishning "Mablag'lar manbayini ajratish" usulida Bank resurslari manbalari aktivlarning likvidlilik, risk darajalari bo'yicha ajratiladi. Bunda birlamchi zaxiralar va ikkilamchi zaxiralarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Mazkur usulda resurslarning bankda saqlanish muddati, depozitlarning barqaror qoldig'ining o'zgarishi, qat'iy belgilangan stavkadagi aktivlar va passivlar o'rtasidagi mutanosiblik, suzuvchi stavkadagi aktivlar va passivlar o'rtasidagi mutanosiblik masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Respublikamizning yirik tijorat banklarida transformatsiya riskining mavjudligi ular faoliyatidagi likvidlilik riski muammosining chuqurlashishiga xizmat qilmoqda.

Respublikamiz banklarida aktivlarning muddatini jalb qilingan resurslarning muddatidan katta bo'lishiga yo'l qo'yilganligi sababli transformatsiya riski paydo bo'ldi.

Transformatsiya riski tijorat bankining likvidliligini izdan chiqishiga olib keladi.

### **Tayanch soʻz va iboralar**

Aktivlarni boshqarish, balanslashmagan likvidlilik, bankning vakillik hisobraqami, birlamchi zaxira, diversifikatsiya, joriy likvidlilik koeffitsiyenti, ikkilamchi zaxira, likvidlilik riski, passivlarni boshqarish, tijorat banklari, transformatsiya riski.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Likvidlilik riski qanday shakllarda namoyon boʻladi?
2. Balanslashmagan likvidlilik nima?
3. Likvidlilik riskini baholashning qaysi usullarini bilasiz?
4. Transformatsiya riski nima?
5. Tijorat banklarining yuqori likvidli aktivlari tarkibiga qaysi turdagi aktivlar kiradi?
6. Tijorat banklari faoliyatidagi likvidlilik riskini boshqarishning qanday usullari mavjud?

# IX bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKNING TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDAGI RISKLARNI NAZORAT QILISHDAGI O'RNI

## 9.1. Markaziy bank tomonidan banklar faoliyatidagi risklarni nazorat qilishda qo'llanilayotgan usullar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari faoliyatidagi risklarni nazorat qilishda iqtisodiy me'yorlar o'rnatish usulidan va inspeksion tekshiruvdan foydalanadi.

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari faoliyatidagi risklarni nazorat qilish maqsadida 14 ta iqtisodiy me'yordan foydalanilmoqda. Shundan 7 ta iqtisodiy me'yor kredit riski bo'yicha, 3 ta iqtisodiy me'yor portfel riski bo'yicha, 2 ta iqtisodiy me'yor – valuta riski bo'yicha, 2 ta iqtisodiy me'yor likvidlilik riski bo'yicha o'rnatilgan.

9.1-jadval

### O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatidagi kredit riski bo'yicha o'rnatgan iqtisodiy me'yorlari

| Iqtisodiy me'yorning nomi                                                                                           | Hisoblash metodikasi                                                                                           | Me'yoriy darajasi |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|
| Bir mijozga yoki o'zaro bog'liq mijozlar guruhiga beriladigan ta'minlanmagan kreditlarning eng yuqori miqdori       | 1 mijozga yoki bog'liq mijozlar guruhiga berilgan <u>ta'minlanmagan kreditlar</u><br>Birinchi darajali kapital | max 0,05          |
| Bir mijozga yoki o'zaro bog'liq mijozlar guruhiga beriladigan ta'minlangan kreditlarning eng yuqori miqdori         | 1 mijozga yoki bog'liq mijozlar guruhiga berilgan <u>ta'minlangan kreditlar</u><br>Birinchi darajali kapital   | max 0,25          |
| Barcha yirik kreditlarning eng yuqori miqdori                                                                       | <u>Yirik kreditlar jami summasi</u><br>Birinchi darajali kapital                                               | max 8,0           |
| Bir insayderga yoki o'zaro bog'liq insayderlar guruhiga beriladigan ta'minlanmagan kreditlarning eng yuqori miqdori | 1 insayderga yoki insayderlarga beriladigan <u>ta'minlanmagan kredit</u><br>Birinchi darajali kapital          | max 0,05          |

|                                                                                                                   |                                                                                                            |          |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|
| Bir insayderga yoki o'zaro bog'liq insayderlar guruhiga beriladigan ta'minlangan kreditlarning eng yuqori miqdori | 1 insayderga yoki insayderlarga beriladigan <u>ta'minlangan kredit</u><br><u>Birinchi darajali kapital</u> | max 0,25 |
| Barcha insayderlarga beriladigan kreditlarning eng yuqori miqdori                                                 | Barcha insayderlarga <u>beriladigan kreditlar</u><br><u>Birinchi darajali kapital</u>                      | max 1,0  |
| Lizing kreditlarining brutto kreditlar hajmidagi eng yuqori salmog'i                                              | <u>Lizing kreditlari -- jami</u><br>Brutto kreditlar                                                       | max 0,25 |

Mazkur iqtisodiy me'yorlarning to'liq bajarilishi tijorat banklari faoliyatidagi kredit riski darajasining oshib ketishini oldini oladi.

## 9.2-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatidagi portfel riski bo'yicha o'rnatgan iqtisodiy me'yorlari**

| Iqtisodiy me'yorning nomi                                                                                      | Hisoblash metodikasi                                                                                                 | Me'yoriy darajasi |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|
| Bir emitentning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning eng yuqori miqdori                          | 1 emitentning qimmatli qog'ozlariga <u>qilingan investitsiyalar</u><br><u>Birinchi darajali kapital</u>              | max 0,15          |
| Oldi-sotdi maqsadlari uchun mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning eng yuqori miqdori | Oldi-sotdi maqsadlari uchun qimmatli qog'ozlarga <u>qilingan investitsiyalar</u><br><u>Birinchi darajali kapital</u> | max 0,25          |
| Barcha emitentlarning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning eng yuqori miqdori                    | Barcha emitentlarning qimmatli qog'ozlariga <u>qilingan investitsiyalar</u><br><u>Birinchi darajali kapital</u>      | max 0,50          |

Ushbu iqtisodiy me'yorlarning to'liq bajarilishi tijorat bankining faoliyatidagi portfel riskining juda chuqurlashib ketishiga imkon bermaydi.

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari  
faoliyatidagi likvidlilik riski bo'yicha o'rnatgan iqtisodiy  
me'yorlari**

| <b>Iqtisodiy me'yorning nomi</b> | <b>Hisoblash metodikasi</b>                                                                                                                                            | <b>Me'yoriy darajasi</b> |
|----------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------|
| Joriy likvidlilik koeffitsiyenti | Likvidli aktivlar va yaqin o'ttiz kun <u>ichida qaytariladigan aktivlar</u><br>Talab qilib olinadigan depozitlar va yaqin o'ttiz kun ichida to'lanadigan majburiyatlar | min 0,30                 |
| Leverej koeffitsiyenti           | <u>Birinchi darajali kapital</u><br>Likvidli aktivlar-nomodiy aktivlar                                                                                                 | min 0,06                 |

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari  
faoliyatidagi valuta riski bo'yicha o'rnatgan iqtisodiy me'yorlari**

| <b>Iqtisodiy me'yorning nomi</b>                                     | <b>Hisoblash metodikasi</b>                                      | <b>Me'yoriy darajasi</b> |
|----------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|--------------------------|
| Bitta valutadagi ochiq valuta pozitsiyasining eng yuqori miqdori     | <u>Bitta valutadagi ochiq pozitsiya</u><br>Regulativ kapital     | max 0,10                 |
| Barcha valutilardagi ochiq valuta pozitsiyasining eng yuqori miqdori | <u>Barcha valutilardagi ochiq pozitsiya</u><br>Regulativ kapital | max 0,20                 |

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari faoliyatini inspeksion tekshirishda bank risklarining darajasiga baho beradi va uni pasaytirish yuzasidan banklarga tavsiyalar beradi.

**CAMELS reyting tizimida tijorat banklarining bozor riskiga ta'sirchanligi bo'yicha baholash<sup>47</sup>**

|          |                 |
|----------|-----------------|
|          |                 |
| <b>1</b> | 5 gacha         |
| <b>2</b> | 5 dan 15 gacha  |
| <b>3</b> | 15 dan 30 gacha |
| <b>4</b> | 30 dan 50 gacha |
| <b>5</b> | 50 dan yuqori   |

Aktivlar sifati bo'yicha "kuchli" reyting baliga ega bo'lgan tijorat banklari 1 ballga ega bo'lishida va ular aktivlarining sifati bo'yicha asosiy ko'rsatkichning darajasi 5 foizgacha bo'ladi.

"CAMELS" reyting tizimida banklarning likvidlilik riskiga baho berishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

**1. Depozitlarning barqarorligi.**

Depozitlarning barqarorligini aniqlash uchun barqaror depozitlar summasi jami depozitlar summasiga taqsimlanadi va olingan natija yuz foizga ko'paytiriladi. Ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasi yetmish besh foizga teng.

**2. Aktivlarning pul mablag'lariga aylanish darajasi.**

Mazkur ko'rsatkich hisoblash uchun likvidli aktivlar brutto aktivlar summasiga bo'linadi va olingan natija yuz foizga ko'paytiriladi.

**3. Tijorat banki uchun tashqi manbalardan foydalanish imkoni darajasi.**

Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun boshqa banklardan olingan kreditlar bank tomonidan jalb qilingan resurslarning jami summasiga bo'linadi va olingan natija 100 foizga ko'paytiriladi.

**4. Bankning likvidlilik bo'yicha ichki siyosatida belgilangan me'yoriy darajalarga erishishning ta'minlanganligi.**

**5. Bank aktivlari va passivlarini boshqarish bo'yicha strategiya-sining samaradorlik darajasi.** Ushbu samaradorlik darajasi ssudalar va depozitlar o'rtasidagi hamda boshqa banklardan olingan kreditlar va jalb etilgan mablag'lar o'rtasidagi nisbatning dinamikasini tahlil qilish orqali baholanadi.

<sup>47</sup>Boboqulov T.I. va boshqalar. Moliya-bank tizimini tahlil qilish va baholashda qo'llaniladigan xalqaro me'yorlar, mezonlar va standartlar. T.: Moliya, 2011.

Bozor riskining tobora kuchayib borayotganligi, ayniqsa, global moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar davridagi bozor konyunkturasining keskin tebranishlari xalqaro bank jamoatchiligini, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari boshqaruv organlarini xavotirga solmoqda. Ayniqsa, derivativlar muomalasi tijorat banklari faoliyatidagi risklarni boshqarish muammolarini chuqurlashishiga xizmat qilmoqda.

## **9.2. Tijorat banklari faoliyatidagi risklarni nazorat qilish amaliyotiga nisbatan qo'yilayotgan yangi talablar**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tasdiqlangan bank tizimini rivojlantirishning 2016–2020-yillarga mo'ljallangan strategiyasida bank risklari darajasining oshishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha aniq vazifalar qo'yilgan.

Mazkur Qarorda banklar faoliyatidagi risklarning darajasini pasaytirishga qaratilgan quyidagi aniq chora-tadbirlar belgilangan:

- tijorat banklarining likvidliligi va kapitalining yetarliligiga nisbatan o'rnatiladigan me'yoriy talablarni yanada takomillashtirish;
- banklar aktivlarining risklarga nisbatan chidamlilik darajasini oshirish;
- tijorat banklari faoliyatida "Samarali korporativ boshqaruv prinsiplari"ni joriy qilish;
- jalb qilingan depozitlardan samarali foydalanishni ta'minlash.

Mazkur Qarorda o'z ifodasini topgan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-sonli raqam bilan ro'yxatga olingan) "Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi hamda 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyuldagi 2693-sonli raqam bilan ro'yxatga olingan) "Tijorat banklari kapitalining monandligiga

qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi yo'riqnomalari qabul qilindi.

Ushbu yo'riqnomalarga asosan 2 ta yangi koeffitsiyent – likvidlilikni qoplash me'yori va sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyentlari qabul qilindi.

Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$LQMK = YuLA : 30 \text{ k.JSCh}$$

bu yerda:

YuLA – yuqori likvidli aktivlar;

30 k. JSCh – keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqim.

Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyentining eng past me'yoriy darajasi quyidagicha belgilangan:

– 2016-yil 1-yanvardan boshlab – 80%

– 2017-yil 1-yanvardan boshlab - 90%

– 2018-yildan 1-yanvardan boshlab – 100%.

Yuqori likvidli aktivlar tarkibi quyidagilardan iborat:

– sof quyma oltin;

– bankning Markaziy bankdagi "Нотро" vakillik hisobraqamidagi pul mablag'lari (10301);

– yetti kungacha muddatdagi banklararo kreditlar va depozitlar;

– "Standart & Poor's", "Fitch Ratings" va "Moody's" xalqaro reyting agentliklarining eng yuqori baholari berilgan, rivojlangan fond birjalari ro'yxatiga kiritilgan, risk darajasi past bo'lgan mamlakatlarning transmilliy kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari;

– bankning boshqa banklarda ochilgan "Нотро" vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag'lari (10501);

– risk darajasi past bo'lgan mamlakatlardagi banklarga joylash-tirilib, ta'minot sifatida qo'yilmagan likvidli aktivlar.

Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (SBMMK) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$SBMMK = BMMS : BMZS.$$

Bu yerda:

BMMS – barqaror moliyalashtirishning mavjud summasi;

BMZS – barqaror moliyalashtirishning zarur summasi.

Barqaror moliyalashtirishning mavjud summasiga quyidagilar kiradi:

– bankning regulativ kapitali;

– qaytarish muddati bir yil va undan ortiq bo‘lgan bank majburiyatlari;

– qaytarish muddati belgilanmagan boshqa depozitlar va qarz mablag‘lari summasining o‘ttiz foizi;

– qaytarish muddati bir yildan kam bo‘lgan boshqa depozitlar va qarz mablag‘lari summasining o‘ttiz foizi.

Barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga quyidagilar kiradi:

– qaytarilishiga bir yil va undan ortiq muddat qolgan bank aktivlari, shu jumladan, muammoli kreditlar va nomoliyaviy aktivlar (yer uchastkalari, binolar, mebel, kompyuterlar va avtomashinalar);

– sud jarayonida bo‘lgan yoki belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar;

– qaytarish muddati bir yildan kam bo‘lgan boshqa aktivlar summasining o‘ttiz foizi, muddatsiz likvidli aktivlar bundan mustasno;

– Balansdan tashqari moddalardagi majburiyatlarning o‘n besh foizi.

Sof barqaror moliyalashtirish me‘yori koeffitsiyenti 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab joriy etiladi va uning eng past me‘yoriy darajasi 100% qilib belgilangan.

E’tirof etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlanishi banklar faoliyatidagi risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur Nizomga asosan, aktivlarni tasniflash tartibi aniqlashtirildi. Jumladan, aktivlar sifatini ularning shartlari qayta ko‘rib chiqilishidan oldingi tasniflangandan toifadan yuqori yoki yaxshiroq toifada tasniflanishining mumkin emasligi belgilab qo‘yildi.

E’tirof etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklari kapitalining monandililigiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi nizomda hoislatiy vositalarga nisbatan aniq tavsifiy talablarning qo‘yilganligi banklar faoliyatidagi portfelli risklar darajasining oldini olish nuqtayi nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hosilaviy vositaning balans ekvivalentini aniqlash<sup>48</sup>

| To'lov muddatlari        | Hosilaviy vositalar (%)    |                                       |
|--------------------------|----------------------------|---------------------------------------|
|                          | foiz stavkasiga asoslangan | valuta almashuv kurslariga asoslangan |
| Bir yilgacha             | 0,5                        | 2,0                                   |
| Bir yildan ikki yilgacha | 1,0                        | 5,0                                   |
| Keyingi yil uchun        | 1,0                        | 3,0                                   |

Hosilaviy vositaning balans ekvivalenti hisoblash omilini har bir vositaning nominal qiymatiga ko'paytirish orqali 9.6-jadval ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da banklar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarning bajarilishi tijorat banklari faoliyatidagi risklarni baholash va boshqarish tizimlarini yanada takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.<sup>49</sup>

Strategiyada mamlakat bank tizimini rivojlantirish bo'yicha quyidagi aniq vazifalar belgilangan:

- bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash;

- banklarning kapitallashtirish darajasi va depozit bazasini oshirish;

- tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlash;

- istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish.

### Tayanch so'z va iboralar

Bank aktivlari, iqtisodiy me'yorlar, inspeksion tekshirish, insayder, kapitalning yetarliligi, likvidlilik riski, likvidlilikni qoplash me'yori, kredit riski, portfel riski, yirik kreditlar, ochiq valuta pozitsiyasi, regulativ kapital, "CAMELS" reyting tizimi.

<sup>48</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli qarori. Tijorat banklari kapitalining monandiligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston, 2015. № 27. 26-b.

<sup>49</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2017. № 6 (766). 32-b.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining kreditlash faoliyatiga nisbatan qanday iqtisodiy me'yorlar o'rnatilgan?

2. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsion faoliyatiga nisbatan Markaziy bank tomonidan qanday iqtisodiy me'yorlar o'rnatilgan?

3. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari kapitalining yetarliligiga nisbatan qanday iqtisodiy me'yorlar belgilangan?

4. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining likvidlik riskini boshqarishga nisbatan qanday usullardan foydalanilmoqda?

5. CAMELS reyting tizimida aktivlarning risk darajasi qanday aniqlanadi?

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli Qarorida bank tizimini rivojlantirish bo'yicha qanday vazifalar belgilangan?

7. Likvidlikni qoplash me'yori qanday hisoblanadi?

## XULOSA

Tijorat banklari faoliyatining tobora rivojlanib borishi yangi bank xizmatlarining, shu jumladan, elektron formatda ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning soni va hajmining oshishiga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, banklar faoliyatidagi risk darajasining ham oshishiga olib kelmoqda.

Tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida eng katta salmoqqa ega bo'lgan aktiv kreditlar bo'lganligi sababli, kredit riskini baholash va boshqarish muhim, o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda kredit riskini baholashda an'anaviy qo'llanilib kelayotgan ko'rsatkichlar tizimi bilan birga Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "standartlashgan yondashuv"dan keng foydalanilmoqda. Standartlashgan yondashuvning muhim afzalligi shundaki, unda kredit riski darajasi kredit olgan mijozning suveren kredit reytingiga bog'liq ravishda belgilanadi.

Foiz riski foiz stavkalarining tebranishi natijasida banklarning zarar ko'rish xavfi bo'lib, taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida uni boshqarishda, asosan, quyidagi usullardan foydalanilmoqda:

- foizli svop usuli;
- opsionlardan foydalanish usuli;
- foiz stavkalarining dinamikasini prognoz qilish usuli;
- bank aktivlari va passivlarining tarkibini o'zgartirish usuli.

Hozirgi davrda xalqaro bank amaliyotida operatsion riskning kuchayib borayotganligi sababli tijorat banklari operatsion riskni baholash va boshqarishga katta e'tibor qaratishmoqda. Operatsion riskning kuchayishi asosan bank xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari tufayli sodir bo'lmoqda. Qo'llanmani yozish jarayonida ko'rinadiki, tijorat banklari operatsion riskni boshqarishda Bazel qo'mitasi tomonidan taklif etilgan bazaviy indikativ yondashuvdan foydalanilmoqda.

Amalga oshirilgan tahlillarning natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklari faoliyatidagi portfel riski ular tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlarning baholari va likvidligining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, uni boshqarishda qimmatli qog'ozlar portfelining diversifikatsiya darajasini ta'minlash muhim o'rin tutadi.

Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan risklari tarkibida valuta riski asosiy o'rinni egallaydi.

Tijorat banklari faoliyatidagi valuta riskini boshqarishda bankning ochiq valuta pozitsiyalarini tartibga solish va valuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish muhim o'rin tutadi. Biroq, tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining ochiq valuta pozitsiyalari hajmini qisqartirish imkoniyatlarining cheklanganligi va valuta zaxiralarining diversifikatsiya darajasining past ekanligi banklar faoliyatida valuta riski darajasining yuqori darajada saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, yetakchi xorijiy valutilarning almashuv kurslarining barqaror emasligi va spot operatsiyalarida sug'urta elementlarini qo'llab bo'lmasligi tijorat banklarining faoliyatidagi valuta riski darajasining oshib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Tijorat banklari faoliyatidagi likvidlilik riskining o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu risk quyidagi ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- tijorat banklarining "Hocrho" vakillik hisobraqamlarida bo'sh pul mablag'larining to'planib qolishida;

- banklarning "Hocrho" vakillik hisobraqamlarida pul mablag'larining yetmay qolishida.

Bank aktivlari va passivlari o'rtasidagi mutanosibliklarni ta'minlash taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida likvidlilik riskini boshqarishning ustuvor yo'nalishi bo'lib hisoblanadi.

Bazel qo'mitasining bank risklarini baholash va boshqarish bo'yicha yangi talablarini O'zbekiston bank amaliyotiga joriy qilinishi, jumladan, likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti va sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyentini amaliyotga joriy etilganligi banklar faoliyatidagi risklarni boshqarishda muhim omil bo'ldi.

## GLOSSARIY

**Bozor riski** (market risk) – foiz stavkalarining barqaror emasligi oqibatida moliyaviy aktivlarning bozor qiymatining o'zgarishi sababli bankning aktiv operatsiyalaridan keluvchi daromadni o'zgarish ehtimoli tufayli yuzaga keladigan risk.

**Bazaviy stavka** (base rate) – kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini belgilashda qo'llaniladi. Odatda, banklararo ssuda kapitallari bozorining stavkasi yoki Markaziy bankning hisob stavkasidan bazaviy stavka sifatida foydalaniladi.

**Baryerli opsiyon** (barrier option) – opsiyon tugash muddati qisqaradigan yoki uzaytiriladigan opsiyon bo'lib, unda belgilangan kurs yetib kelishi kutiladi.

**Bermud opsiyonlari** (Bermuda options) – Amerika va Yevropa opsiyonlarining birlashmasidir.

**Valuta pozitsiyasi (bankning)** (foreign exchange position) – tijorat bankining ma'lum bir valutadagi talab va majburiyatlarining o'zaro nisbati.

**Valuta riski** (exchange rate risk) – valuta kurslarining tebranishi natijasida zarar ko'rish xavfi.

**Garov** (pledge) – kredit yoki qarzning ta'minoti sifatida qo'yilgan mulk yoki mulkiy huquq.

**Devalvatsiya** (devalua tjon) – milliy valutaning xorijiy valutaga nisbatan qadrsizlanishi.

**Kredit** (credit) – pul yoki tovar shaklidagi mablag'larni qaytarib berishlik, muddatlilik va foiz to'lashlilik shartlari asosida berish.

**Kredit riski** (credit risk) – kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytmasligi natijasida zarar ko'rish xavfi.

**Kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplash uchun zaxira** (loan loss reserve).

**Koll opsiyon** (call option) – ma'lum bir valutani yoki qimmatli qog'ozni belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish huquqini beruvchi opsiyon.

**Likvidlilik riski** (liquidity risk) – joriy moliyaviy majburiyatlarni bajara olmay qolish yoki pul mablag'larini to'planib qolishi.

**Osiyo opsiyonlari** (average rate options) – yoki oʻrtacha kurs opsiyonlari.

**Operatsion risk** (operations risk) – bank xodimlarining aybi bilan yoki texnik-dasturiy taʼminotdagi uzilishlar tufayli zarar koʻrish xavfi.

**Put option** (put option) – maʼlum bir valutani yoki qimmatli qogʻozni belgilangan kurs boʻyicha kelgusida sotish huquqini beruvchi option.

**Portfel riski** (portfolio risk) – qimmatli qogʻozlarning bahosini oʻzgarishi natijasida zarar koʻrish yoki koʻzda tutilgan daromadlarning bir qismini yoʻqotish xavfi.

**Risk** (risk) – noaniqlik, zarar koʻrish xavfi.

**Risksiz aktivlar** (riskless assets) – risk darajasi nolga teng boʻlgan, yaʼni risksiz aktivlar.

**Riskli loyihalar** (risky projects) – yuqori darajada daromad olish yoki zarar koʻrish ehtimoli yuqori boʻlgan loyihalar.

**Revalvatsiya** (re-valeo) - milliy valutani chet el valutariga yoki xalqaro hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrini oshirishdir.

**Spot operatsiyasi** (spot) – spot bitimi tuzilgandan keyin 2 ish kuni mobaynida amalga oshiriladigan joriy valuta operatsiyasi.

**Svop** (swap) – maʼlum bir valutani spot sharti boʻyicha sotish va uni forvard sharti boʻyicha sotib olishdir yoki maʼlum bir valutani forvard sharti boʻyicha sotish va uni spot sharti boʻyicha sotib olishdir.

**Siyosiy risk** (political risk) – mamlakatda siyosiy vaziyatning yomonlashishi natijasida moliyaviy majburiyatlarni bajarilmaslik riski.

**Forvard operatsiyasi** (forward) – maʼlum bir valutani belgilangan kurs boʻyicha kelgusida sotib olish yoki sotish operatsiyasi.

**Foiz stavkasi** (interest rate) – depozitlar, kreditlar va moliyaviy instrumentlarning foiz stavkasi.

**Foiz marjasi** (interest margin) – foiz stavkalari oʻrtasidagi farq. Masalan, berilgan kreditning foiz stavkasi bilan jalb qilingan depozitning foiz stavkasi oʻrtasidagi farq.

**Foiz riski** (interest rate risk) – foiz stavkalarining tebranishi natijasida zarar koʻrish xavfi.

**Xedj** (hedge, selling hedge) - baho boʻyicha riskni sugʻurtalash; fyuchers shartnomasi tuzish.

## TEST SAVOLLARI

**1. 50% risk darajasiga ega bo'lgan bank aktivini ko'rsating.**

- a) sinditsiyali kredit;
- b) ipoteka krediti;
- c) flout;
- d) hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar.

**2. Mudis xalqaro reyting agentligining metodikasi bo'yicha "V" toifaga mansub bo'lgan bank uchun muammoli kreditlarning darajasi bo'yicha belgilangan me'yoriy darajani ko'rsating.**

- a) 0,8%-2,0%;
- b) 2%-5%;
- c) 5%-12%;
- d) 12 foizdan yuqori.

**3. Mudis xalqaro reyting agentligining metodikasi bo'yicha "D" toifaga mansub bo'lgan bank uchun muammoli kreditlarning darajasi bo'yicha belgilangan me'yoriy darajani ko'rsating.**

- a) 0,8%-2,0%;
- b) 2%-5%;
- c) 5%-12%;
- d) 12 foizdan yuqori.

**4. Foiz riskini boshqarishning vazifasi nimadan iborat?**

- a) likvidlilikka rioya qilgan holda, foyda va risk o'rtasidagi optimal munosabatni topish;
- b) foyda va kredit riski o'rtasidagi optimal nisbatni topish;
- c) bank operatsiyalarini amalga oshirishdagi xatolarni topish;
- d) foyda va reputatsiyani yo'qotish riski o'rtasidagi optimal nisbatni topish.

**5. Kredit riskini baholashning standartlashtirilgan yondashuvida 50% risk darajasini beruvchi reyting bahosini ko'rsating.**

- a) AAA dan AA - gacha;
- b) A + dan A- gacha;
- c) VVV + dan VV- gacha;
- d) VV – dan past.

**6. Barcha insayderlarga beriladigan kreditlarning me'yoriy darajasi:**

- a) bank birinchi darajali kapitalining 50 foizigacha;

- b) bank regulativ kapitalining 50 foizigacha;
- c) bank regulativ kapitalining 100 foizigacha;
- d) bank birinchi darajali kapitalining 100 foizigacha.

**7. «Standart» deb tasniflangan aktivlar uchun qancha miqdorda zaxira tashkil etiladi?**

- a) 1 %;
- b) 10 %;
- c) 25 %;
- d) 50 %.

**8. Kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining me'yoriy darajasini ko'rsating.**

- a) 0,5%;
- b) 1,25%;
- c) 3,0%;
- d) 5,0%.

**9. Muddati o'tgan kreditlarning normal darajasini ko'rsating.**

- a) 0,5%;
- b) 1,25%;
- c) 3,0%;
- d) 5,0%;

**10. Muddati o'tgan kreditlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasini ko'rsating.**

- a) 0,5%;
- b) 1,25%;
- c) 3,0%;
- d) 5,0%;

**11. Devalvatsiya zaxirasi shakllantirilishi lozim bo'lgan manba:**

- a) joriy yilning sof foydasi;
- b) taqsimlanmagan foyda;
- c) foizli daromad;
- d) sof foizli daromad.

**12. Likvidlikni qoplash me'yori koeffitsiyentining me'yoriy darajasi qaysi vaqtdan boshlab 90% qilib belgilanadi?**

- a) 2016-yil 1-yanvardan boshlab;
- b) 2017-yil 1-yanvardan boshlab;
- c) 2018-yil 1-yanvardan boshlab;
- d) 2019-yil 1-yanvardan boshlab.

**13. Barqaror moliyalashtirishning mavjud summasiga kiradigan elementni ko'rsating.**

- a) balansdan tashqari majburiyatlarning 15 foizi;

- b) regulativ kapital;
- c) sud jarayonidagi aktivlar;
- d) qaytarish muddati 1 yildan ortiq bo'lgan aktivlar;

**14. Barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga kiradigan elementni ko'rsating.**

- a) qaytarish muddati 1 yil va undan ortiq bo'lgan majburiyatlar;
- b) qaytarish muddati belgilanmagan qarz mablag'lari summasining 30 foizi;
- c) sud jarayonidagi aktivlar;
- d) muddatsiz likvidli aktivlar.

**15. Tijorat bankining bitta valutatdagi ochiq valuta pozitsiyasiga nisbatan belgilangan cheklovning me'yoriy darajasini ko'rsating.**

- a) 5 %;
- b) 10%;
- c) 15%;
- d) 20%.

**16. Tijorat bankining barcha valutalardagi ochiq valuta pozitsiyasiga nisbatan belgilangan cheklovning me'yoriy darajasini ko'rsating.**

- a) 5 %;
- b) 10%;
- c) 15%;
- d) 20%.

**17. Sof foizli spread ko'rsatkichining me'yoriy darajasi:**

- a) 0,5%;
- b) 1,25%;
- c) 4,0%;
- d) 4,5%.

**18. Sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasi:**

- a) 0,5%;
- b) 1,25%;
- c) 4,0%;
- d) 4,5%.

**19. Kreditlar bo'yicha yo'qotishlar zaxirasining ikkinchi darajali kapitalga kiritiladigan qismi qaysi ko'rsatkichga nisbatan olinadi?**

- a) kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik;
- b) bank aktivlarining riskka tortilgan summasi;
- c) regulativ kapital;
- d) daromad keltiradigan aktivlar.

**20. REPO operatsiyasi nima?**

- a) qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish sharti bo'yicha sotish;
- b) qimmatli qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan kredit berish;

- c) qimmatli qog'ozlar bo'yicha beriladigan bank kafolati;
- d) tratalarni qayta hisobga olish yo'li bilan kredit berish.

**21. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklarining 1 yildan 3 yilgacha muddatga jalb qilingan depozitlariga nisbatan belgilangan majburiy zaxira stavkasini ko'rsating.**

- a) 10,5%;
- b) 12,0%;
- c) 13,0%;
- d) 15,0%;

**22. Agar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki majburiy zaxira talabnomalarining amaldagi 15 foizli bazaviy stavkasini 5,0 foizli punktga pasaytirsa, u holda, tijorat banklarining 3 yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlariga nisbatan belgilangan majburiy zaxira stavkasi necha foizni tashkil etadi?**

- a) 5%;
- b) 7%;
- c) 8%;
- d) 9%.

**23. Balanslashmagan likvidlilik nima?**

- a) bankning vakillik hisobraqamlarida mablag'larning yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan risk;
- b) bankning vakillik hisobraqamlarida ortiqcha mablag'larni paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan risk;
- c) aktivlar muddatini jalb qilingan resurslar muddatidan katta bo'lishi natijasida yuzaga keladigan risk;
- d) bank joriy aktivlari summasini joriy passivlar summasidan kam bo'lishi.

**24. Operatsion riskni baholashda hisobga olinadi?**

- a) so'nggi 3 yildagi yalpi daromad;
- b) so'nggi 3 yildagi sof foizli daromad;
- c) so'nggi 3 yildagi sof foyda;
- d) o'tgan yilning taqsimlanmagan foydasi.

**25. Valuta riskining nechta kategoriyasi mavjud?**

- a) 2;
- b) 3;
- c) 5;
- d) 7.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 1996-yil 25-aprel. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 14-51 b.

2. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni. 1995-yil 21-dekabr. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 11-33 b.

3. O'zbekiston Respublikasining "Valutani tartibga solish to'g'risida"gi qonuni. 2003-yil 11-dekabr. №556-II. O'zbekiston Respublikasining valutani tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 456 b.

4. O'zbekiston Respublikasining "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2011-yil 11-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2011-yil 26-avgustda ma'qullangan // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2011. № 40. 46-58 b.

5. O'zbekiston Respublikasining "Garov reyestri to'g'risida"gi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2013-yil 19-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2013-yil 22-avgustda ma'qullangan//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2013. № 43. 3-7 b.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2015. №18. 3-4 b.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli "2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2010. №48. 4-6 b.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-dekabrdagi 422-sonli «Banklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli molumkiga qaratish tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga

solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 329-332 b.

9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2015. №28. 22-33 b.

10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyulda 2693-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2015. №27. 17-29 b.

11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi yo'riqnoma // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2015. №32. 141-152 b.

12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 3-iyulda 2692-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirish mexanizmi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi yo'riqnoma // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2015. №26. 92-98 b.

13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 5-avgustda 2706-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan tuziladigan bitimlar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi yo'riqnoma // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2015. №31. 16-21 b.

14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 5-avgustda 2707-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdorlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi yo'riqnoma // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2015. №31. 22-26 b.

15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2013-yil 26-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 3-iyunda 2465-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi yo'riqnoma // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2013. №23. 68-101 b.

16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2011-yil 12-dekabrda qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2012-yil 15-martda 2342-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi qarorlari // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2012. 160-171 b.

17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2006-yil 21-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2006-yil 27-dekabrda 1648-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) «Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida»gi nizom. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 565-580 b.

18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2003-yil 11-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 24-yanvarda 1304-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Foizlarni o'stirmaslik to'g'risida"gi nizom. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 632-639 b.

19. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2003-yil 11-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 30-yanvarda 1306-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risida"gi nizom. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 640-652 b.

20. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2003-yil 11-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 24-yanvarda 1304-sonli raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Foizlarni o'stirmaslik to'g'risida"gi nizom. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 632-652 b.

21. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2000-yil 22-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 2-martda 905-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizom. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 535-541 b.

22. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2000-yil 15-iyuldagi qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 3-avgustda 953-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: O'zbekiston, 2011. 549-554 b.

23. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital standards. Basel, 1998. publications@bis.org

24. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II Basel, 2006. publications@bis.org

25. Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. Basel, 2010. publications@bis.org

26. Валенцева О.И. Банковские риски. М.: КНОРУС, 2008. 232 с.

27. Жарковская Е.П. Банковское дело. – М.: Омега-Л, 2008. 476 с.

28. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishdir. T.: O'zbekiston, 2016. B. 19.

29. Ларионова И.В. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. М.: Консалтбанк, 2003. 272 с.

30. Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования / Финансовая академия при правительстве РФ. 4-е изд., стереотип. М.: КНОРУС, 2008. 264 с.

31. Миллер Л.Р. Современные деньги и банковское дело. М.: Инфра-М, 2000. 856 с.

32. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017. 104 b.

33. Mullajonov F.M. O'zbekiston bank tizimi: izchil islohotlarning mustahkam poydevori//Bozor, pul va kredit. T., 2016. №1. 4-14 b.

34. Носкова И.Я. Валютные и финансовые операции. М.: ЮНИТИ, 1998. 232 с.

35. Сото Х.У. Деньги, банковский кредит и экономические циклы / Пер. с англ. М.: Социум, 2008. 663 с.
36. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. М.: Антидар, 1998. 320 с.
37. Симановский А.Ю. Банковское регулирование: революция // Деньги и кредит. М., 2014. №3. С. 3-12.
38. Стежкин А.А. Отдельные аспекты оценки кредитного риска банков // Деньги и кредит. М., 2014. №3. С. 54-58.
39. Савчук Т.А. Теневая банковская система: масштабы, риски. Регулирование//Банковское дело. М., 2013. №6. С. 37-43.
40. Филимонов А.Е. Базель-III уже навредил репутации банков // Банковское дело. М., 2013. №8. С. 37-43.
41. Мартыненко Н.Н., Лялкова Е.Ю. Обеспечение ликвидности банков в условиях становления Банка России в качестве мегарегулятора // Банковское дело. М., 2013. №10. С. 70-75.
42. Abdusalomova O.F. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish masalalari: i.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. 20 b.
43. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari: i.f.d. ilm. dar. ol. uchun taqd. et. diss. avtoref. T., 2008. 33 b.
44. Ruzmetov Sh.B. O'zbekiston tijorat bnklari depozit bazasini mustahkamlash yo'llari: i.f.n. ilm. dar. ol. uchun diss. T., 2009. 18 b.
45. Ermatov M.K. "CAMEL" reyting tizimi va bank auditini takomillashtirish muammolari. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. T., 2009. 18 b.

## MUNDARIJA

|                                                                                      |           |
|--------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>Kirish.....</b>                                                                   | <b>3</b>  |
| <b>I bob. BANKLAR FAOLIYATIDAGI RISKLAR VA ULARNING<br/>TURKUMLANISHI.....</b>       | <b>5</b>  |
| 1.2. Risklarning tijorat banklari faoliyatiga ta'siri .....                          | 6         |
| 1.3. Bank risklarining turkumlanishi.....                                            | 10        |
| <b>II bob. BANK RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMI.....</b>                                | <b>13</b> |
| 2.1. Bank risklarini boshqarishning nazariy asoslari.....                            | 13        |
| 2.2. Bank risklarini markazlashgan tarzda boshqarish tizimi.....                     | 15        |
| 2.3. Bank risklarini markazlashmagan tarzda boshqarish tizimi.....                   | 20        |
| <b>III bob. KREDIT RISKI MAZMUNI, UNI BAHOLASH VA<br/>BOSHQARISH USULLARI .....</b>  | <b>25</b> |
| 3.1. Kredit riski tushunchasi va kredit riskini yuzaga keltiruvchi<br>sabablar ..... | 25        |
| 3.2. Kredit riskini baholash usullari .....                                          | 27        |
| 3.3. Kredit riskini boshqarish usullari.....                                         | 31        |
| <b>IV bob. FOIZ RISKI VA UNI BOSHQARISH USULLARI .....</b>                           | <b>37</b> |
| 4.1. "Foiz riski" tushunchasi .....                                                  | 37        |
| 4.2. Foiz riskini baholash usullari .....                                            | 38        |
| 4.3. Foiz riskini boshqarish usullari .....                                          | 40        |
| <b>V bob. OPERATSION RISK .....</b>                                                  | <b>43</b> |
| 5.1. "Operatsion risk" tushunchasi.....                                              | 43        |
| 5.2. Operatsion riskni baholash usullari.....                                        | 44        |
| 5.3. Operatsion riskni boshqarish usullari.....                                      | 46        |
| <b>VI bob. TIJORAT BANKLARIDA PORTFEL RISKI VA UNI<br/>BOSHQARISH USULLARI .....</b> | <b>52</b> |
| 6.1. "Portfel riski" tushunchasi .....                                               | 52        |

|                                               |    |
|-----------------------------------------------|----|
| 6.2. Portfel riskini baholash usullari.....   | 53 |
| 6.3. Portfel riskini boshqarish usullari..... | 55 |

## **VII bob. TIJORAT BANKLARINING XALQARO**

### **OPERATSIYALARI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN RISKLAR. 59**

|                                                                                                                       |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 7.1. Banklarning xalqaro operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan risklarning turlari va yuzaga kelish sabablari .....    | 59 |
| 7.2. Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni baholash va boshqarish usullari..... | 60 |

## **VIII bob. TIJORAT BANKLARIDA LIKVIDLILIK RISKI..... 66**

|                                                                                |    |
|--------------------------------------------------------------------------------|----|
| 8.1. “Likvidlilik riski” tushunchasi.....                                      | 66 |
| 8.2. Tijorat banklari likvidlilik riskini baholash va boshqarish usullari..... | 67 |

## **IX bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKINING TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDAGI RISKLARNI NAZORAT QILISHDAGI O‘RNI .....**

|                                                                                                                      |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 9.1. Markaziy bank tomonidan banklar faoliyatidagi risklarni nazorat qilishda qo‘llanilayotgan usullar .....         | 76 |
| 9.2. Tijorat banklari faoliyatidagi risklarni nazorat qilish amaliyotiga nisbatan qo‘yilayotgan yangi talablar ..... | 80 |

|                                        |           |
|----------------------------------------|-----------|
| <b>Xulosa .....</b>                    | <b>85</b> |
| <b>Glossariy .....</b>                 | <b>87</b> |
| <b>Test savollari .....</b>            | <b>89</b> |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar .....</b> | <b>93</b> |

ISAKOV JANABAY YAKIPBAYEVICH

# BANK RISKLARI

*O'quv qo'llanma*

*Muharrir* N. Rustamova

*Badiiy muharrir* M. Odilov

*Kompyuterda sahifalovchi* O. Fozilova

Nashr. lits. AI № 305. 22.06.2017.

Bosishga ruxsat 09.12.2017-yilda berildi.

Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog'ozi №2. «Times» garniturası.

Shartli b.t. 5,8. Nashr hisob t. 5,9.

Adadi 150 dona. 71-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti,  
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 «A».

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»  
bosmaxonasida chop etildi.  
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 «A».

65.262.1

ISBN 978-9943-13-703-5



9 789943 137035